O‘ZBEKISTON QO‘SHNI DAVLATLAR BILAN YAXSHI QO‘SHNICHILIK VA O‘ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH BORASIDA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORMOQDA

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

Milliy tiklanish

1995 yil 10 iyundan chiqa boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2022@umail.uz



21- OKTYABR – O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

...ANDISHADAN UZOQLASHYAPMIZ 3

«ONA TILIM!» DESAM, BIRDAN, TURKU TURON BOSH KO‘TARAR 2

№ 36 (1185) 2022-yil 21-oktyabr, juma

SHAVKAT MIRZIYOYEV ASHXOBODGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Ashxobod xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari Botir Atdayev va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Qisqa suhbatdan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti o‘zi uchun ajratilgan qarorgohga yo‘l oldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari bugun, 21-oktyabr kuni bo‘lib o‘tadi.

«Tilni bilish fazilat», deya o‘z umrini so‘zga tikib, avlodlarga buyuk meros qoldirgan Navoiy tili emasmi O‘ZBEK TILI?

So‘z mulkida shu qadar boy bo‘lsakda, o‘z asarlari bilan dunyoni lol qilgan Erkin Vohidovni «Bir umr so‘z izlab o‘tdig-a», degan til haqidagi jarohati emasmi O‘zbek tili?

«Til uchun qayg‘urish – Vatan uchun qayg‘urish bilan barobardir», deya uh tortib, jahon adabiyoti durdonalarini ona tilimizga o‘girgan, butun umrini ona tili rivojiga sarflab kelayotgan Ibrohim G‘afurning tili emasmi O‘ZBEK TILI?

Ona tilimiz shu qadar boyki, hali inson ongining qavatlarida kashf qilinmagan, neyronlarida uxlab yotibdi, deya xitob qilayotgan Xurshid Do‘stmuhammad tili emasmi O‘ZBEK TILI?

O‘z yurtimizda barcha xat-hujjatlar ona tilimizda yuritilishi kerak bo‘lgan vaqt kelmadimikin? Biz qachongacha bu borada saxovatli bo‘lamiz? Ona tilim – jonu dilim deymiz, shunday ekan nega haligacha boshqa tillarda yozilayotgan, o‘qilayotgan reklama roliklarini to‘xtatolmayapmiz.

Vatan jon tomirda qo‘riqlanganidek, tilimiz ham shunday qo‘riqlanishi kerak emasmi?

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Til borki, millat barhayot» mavzusidagi davra suhbatini ana shunday fikr-mulohazalar bilan ochdi.

Hozir yoshlarning magistraturada o‘qishi uchun qaysidir xorijiy tilni bilish majburiyati qo‘yilgan. Men bu talabni yoshlarning ilm olishga bo‘lgan to‘siq deb bilaman...



21-oktyabr – O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun emas, O‘zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan kun deya omma oldida e’tirof etilishini taklif qilaman

TILGA E’TIBOR – QADRIYAT VA O‘ZLIKKA E’TIBOR DEGANIDIR

Davomi 2-betda

3
BU HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZ
O‘zini o‘z millatiga mansub deb bilgan har qanday inson uchun o‘z ona tili bebaho boylikdir.

4
KEYIN KECH BO‘LISHI MUMKIN
Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun sayyoramizda 6 mingga yaqin til va shevalar bo‘lib, ularning faqat ikki yuzga yaqini og‘zaki va yozma jihatdan to‘la shakllangan.

5



TARBIYASIZ TARBIYA JAMIYATNI NOGIRON QILADI
Rasmiy hujjat bilan tasdiqlandi: intizomiy chora, ogohlantirish, uzrnoma yoki tanbeh... Tanbehni «poxol do‘q» desayam bo‘ladi.

ZANGLAGAN TILLA KALIT
YOXUD ABDULLA AVLONIY BOBOMIZNING «SOTKA» ISHLATGANI TILGA OLINGAN MULOQOTDAN KEYINGI O‘YLAR 7

QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM 3s.

JURNALISTLAR HAM MAS’UL 5s.



BEZBETROQ TIZIMIMIZ BOR 4



MAHALLALARDAGI LOYIHALARGA 1.3 TRILLION SO‘M 4



O‘QITUVCHINING YOQASIDAN QO‘LINGNI TORT, nomard! 5

MILLAT QIYOFASINING BIR BO‘LAGI

YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillar soni 8 mingtaga yetgan. Bugun esa dunyoda 6 mingta tirik til qolgan bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli o‘z madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlar tilidir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari hatto o‘z yozuviga ham ega emas.

Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi allaqachon o‘z yozuvlarini yo‘qotgan. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqidaku gapirmasa ham bo‘ladi, chunki yangi texnologiyalar tufayli ayrim xalqlar o‘z tillaridan ko‘ra, zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqdalar. Qayd etilishicha, hozir internetdagi foydalanuvchi tillarning 81 foizi ingliz tiliga to‘g‘ri keladi.

Yo‘qolib ketish xavfi yuqori bo‘lgan tillarni saqlab qolishdan maqsad esa madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta’minlashdan iboratdir. Buning asl sababi aynan til tufayli xalqlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, ularning tarixi hamda madaniyati yana yashay boshlaydi. Tilshunoslarning fikricha, hali yo‘qolib ketish arafasidagi tillarni saqlab qolish mumkin. BMT ekspertlarining fikricha, buning uchun tillardan ta’lim tizimida keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Davomi 2-betda

Kecha Fransiya Parlamentida kam uchraydigan bir holat bo‘ldi: Hukumat Konstitutsiyaning 49.3-moddasida belgilangan vakolatidan foydalanib, Parlamentning qarshi ekaniga ham qaramasdan byudjetni ijroga qabul qildi.

Ma’lumki, Hukumat energiya resurslari uchun narxlarni oshirmaslikni so‘ragan edi. Parlament esa buni rad etdi.

Parlament zarariga bo‘lsa ham bozor qonunlarini buzilishiga qarshi chiqdi. Ammo Hukumat noan’anaviy qarori bilan ijtimoiy keskinlikning oldini olmoqchi.

Aytish kerakki, Parlament ish beruvchi bo‘lgan tadbirkordan, hukumat esa aholining muhtoj qatlamining noroziligidan xavotirda. Shu o‘rinda, Hukumat o‘z tabiatidan kelib chiqib qisqa, Parlament esa fundamental, ya’ni uzoq muddatda xalq manfaatini o‘ylayapti.

Bizda ham Konstitutsiyaga “Ijtimoiy davlat” tushunchasi kiritilib, aholining ijtimoiy muhtoj qatlamini ta’minlash davlat zimmasidagi majburiyat sifatida belgilanmoqchi.

Bu azaliy qadriyatlarimizda belgilanganidek, boylarning muhtojlarga yordamini davlat tomonidan rag‘batlantirish shaklida amalga oshirilsa yaxshi, albatta. Lekin bularning barchasi davlat budjeti hisobidan bo‘lsa, juda qisqa vaqt ichida muhtojlar jamiyatiga ega bo‘lib qolamiz.

Fikrimcha, muhtojlarni emas, tadbirkorlarni ko‘proq o‘ylash kerak. Zero, milliy qadriyatlarimiz talab etganidek agar tadbirkorlar qatlami muhtojlarni o‘ylashni boshlasa, davlat ham taraqqiyot haqida o‘ylashni boshlaydi.

@alisherQodir



2022-yilning 21-oktyabr sanasidan ✓ AQSH dollari 11148.99. ✓ 1 EVRO 10946.08. ✓ 1 Rossiya rubli 181.06. ✓ 1 Angliya funt sterlingi 12579.41. ✓ 1 Yaponiya iyenasi 74.61.

ISSN 2010-7714

Juma
21-oktyabr, 2022-yil
№36 (1185)

«HAR BIRIMIZ DAVLAT TILIGA BO‘LGAN E’TIBORNI MUSTAQILLIKKA BO‘LGAN E’TIBOR DEB, DAVLAT TILIGA EHTIROM VA SADOQATNI ONA VATANGA EHTIROM VA SADOQAT DEB BILISHIMIZ, SHUNDAY QARASHNI HAYOTIMIZ QOIDASIGA AYLANTIRISHIMIZ LOZIM»

Shavkat MIRZIYOYEV



(Boshlanishi 1-betda)

TILGA E’TIBOR – QADRIYAT VA O‘ZLIKKA E’TIBOR DEGANIDIR

Ona tilimizning og‘riqlarini bugun eslamasak, muammolarini hozirning o‘zida hal etmasak, keyin bunday jonbozlikning kimga keragi bor?! Til to‘g‘risida qonun qabul qilib qo‘yib, unga o‘zimiz amal qilmasak... Nima, bu qonun qog‘ozlar uchunmidi? Bolalarning hayotiy kashfiyoti: bog‘chada – boshqalar, maktabda – bilimlar begona tilda taklif qilinsa, yilning 365 kuni o‘zbek tili bayramini nishonlasak ham, bolalar uchun atrof va bilim begona bo‘lib qolaveradi. Begona so‘zlarni tushunmagan bola ilk davrdayoq muhim hayotiy ko‘nikmalarni boy beradi yoki o‘zligiga xos bo‘lmagan begona ko‘nikmalarga moslashadi. Lev Tolstoy aytganidek, «O‘z millatiga begona odamdan ham baxtsizroq kim bo‘lishi mumkin». Alisher Qodirovning aytishicha, bolalarimiz o‘zbek, ingliz, rus, arab va fors tillarini mukammal o‘rganganlari qanday yaxshi. Faqat bu tillar 10 yoshdan keyin taklif etilishi kerak. Bolaning ongosti, o‘zligiga uyg‘un ruhiy dunyosi shakllanadigan bu davrni begona til muhitida o‘tkazish faqatgina pedagogik xato emas, balki qadriyatlar va o‘zlikka nisbatan jinoyat hamdir. Bu nafaqat O‘zbekistondagi asosiy millat bo‘lgan o‘zbeklar, balki boshqa millatli vatandoshlarimiz uchun ham muhim masala bo‘lib, qaror qabul qilishni faqat ota-onalar tanloviga qo‘yib berish katta xato deb o‘ylayman.

O‘zbek – o‘zbek, tojik – tojik, qozoq – qozoq, rus – rus tilida savodini chiqarsa nimasi yomon buning. 6-sinfdan boshlab esa o‘zbek tilini o‘qitish majburiy, qolgan tillarni esa ixtiyoriy tarzda o‘qish uchun imkoniyat berishimiz kerak. Rus, qozoq, tojik va boshqa millat vakili bo‘lgan vatandoshlar uchun bog‘cha va maktab qurish, ularni mutaxassislar bilan ta’minlash masalasida esa manfaatdor davlatlarga investitsiya kiritish uchun imkoniyat berilishi ham mumkin. Biz ham o‘z o‘rnida millatdoshlarimiz yashaydigan boshqa davlatlarda bog‘cha va maktablar ochish, o‘zbek o‘qituvchilari bilan ta’minlash haqida o‘ylashimiz kerak. Toki, o‘zbek tili ham dunyodagi barcha go‘zal tillar qatorida rivojlansin. Rivojlanishning darajasini esa o‘zbeklar vatani bo‘lgan O‘zbekistonda o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabat belgilab beradi.

Davra suhbatida O‘zbekiston Qahramoni, partiya faxriysi Ibrohim G‘afurov ham ishtirok etib, so‘zga chiqdi.

Bu inson haqiqiy jonfidoyi, bir umr, kurashganda ham til va uning ravnaqi uchun kurashgan, har daqiqada zavolidan iztirobga tushgan zotdir. Haqiqatan ham oramizda ona tilimiz ifodasi lazzatini unchalik his eta olgan inson kam bo‘lsa kerak. So‘z ustida ishlayotganda nima deb yozishni emas, nima deb yozmaslikni o‘ylab bir asar tarjimasiga umrining yarmini bag‘ishlagan ustozga so‘zda haykal qo‘ymaslikning chorasi yo‘q. Koshki edi, har birimiz ana shu insondek ona tilimiz uchun ezgulik yo‘lida yurish qilsak. Shunda millatning kelajagi shu qadar gurkirar ediki, bu baxtni his etgan har bir jon o‘zbek tilining qudratiga yana bir bor ishonch hosil qilgan bo‘lar edi.

– 21-oktyabr – O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun emas, O‘zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan kun deya omma oldida e’tirof etilishini taklif qilaman, – dedi Ibrohim G‘afurov. «Oktyabr – O‘zbek tili va adabiyoti oyligi» loyihasi doirasida tashkil etilgan ushbu tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ham ishtirok etdi. Uning fikricha, milliy tilning rivojlanishi har bir insonning dunyoqarashiga bog‘liq. Taniqli shoira Farida Afro‘z esa millatning ruhi, nafasi ufurib turgan ona tilimizni betakror zaminimiz singari e’zozlash har birimizning farzandlik burchimiz ekanini, zero, burchga sodiqlik har bir ziyoli shaxsning metin irodasini belgilashini ta’kidladi. Tadbirda yoshlar parlamenti a’zolari ham so‘zga chiqdi. Ular asosan o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor, uning qadr-qimmatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, aynan o‘zbek tilining rivoji uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar xususida o‘z fikrlarini bildirdilar.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilari ona tilining qadr-qimmatini yanada oshirish, joylarda e’lon qilinadigan yozuv, peshlavha, axborot matnlarini davlat tili qoidalariga amal qilgan holda yozish kerakligini, afsuski, hali bu borada bir qator kamchiliklar mavjudligini kuyunchaklik bilan sanab o‘tdilar.

– Hozir yoshlarning magistraturada o‘qishi uchun qaysidir xorijiy tilni bilish majburiyati qo‘yilgan. Men bu talabni yoshlarning ilm olishga bo‘lgan to‘siq deb bilaman, – deydi Yoshlar parlamenti raisi, partiya faoli Shahnoza Jo‘ldasova.

Tadbirda ayni paytda o‘zbek tili alohida fan sifatida o‘qitilayotgan xorijiy universitet va markazlar bilan hamkorlik o‘rnatish, ular uchun o‘quv adabiyotlari yaratish borasida ham ish olib borish lozimligi ta’kidlandi. Shuningdek, jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyotining sara namunalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish, bu yo‘nalishdagi ijodiy maktablarni rivojlantirish, yuqori malakali tarjimon-adiblar hamda mutaxassislarni tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi haqida so‘z yuritildi.

Davra suhbati yakunida davlat tilining nufuzi va obro‘sini oshirishda parlamentning ishtiroki va rolini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Nafisa RUSTAMOVA,
«Milliy tiklanish» muxbiri

> **Bolalarning hayotiy kashfiyoti: bog‘chada - boshqalar, maktabda - bilimlar begona tilda taklif qilinsa, yilning 365 kuni o‘zbek tili bayramini nishonlasak ham, bolalar uchun atrof va bilim begona bo‘lib qolaveradi.**

(Boshlanishi 1-betda)

MILLAT QIYOFASINING BIR BO‘LAGI

Zero, aynan til tufayli insoniyatning u yoki bu xalqqa mansubligi ma’lum bo‘ladi. Mavjud tillarni tan olish va hurmat qilish esa hatto tinchlikning kafolati hamdir.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida ham o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini yana-da oshirish, uni mamlakatimizda va xorijda keng targ‘ib etish, O‘zbek tilining keng qo‘llanilib, zamonaviy taraqqiyotga uyg‘un tilga aylanishi uchun huquqiy asoslarni yana-da kuchaytirish lozimligi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan.

Shavkat RO‘ZMETOV,
partiyaning Xorazm viloyati Kengashi bosh mutaxassisi



ONA TILIM

«Ona tilim!» desam, birdan,
Turku turon bosh ko‘tarar,
Tosh bitiklar, O‘rxun xati, ilmu
urfon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, nogoh,
Qad rostlaydi «Alpomish»lar,
«Go‘ro‘g‘li»yu «Kun tug‘mish»lar,
qadim arkon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, yo, Haq,
Moturidiy, Zamaxshariy,
Buxoriylar qonda yoqqan nuri
Qur’on bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, masrur,
Beruniyning qomuslari,
Ibn Sino malham tutgan dardga
darmon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, mag‘rur,
Yarim jahon tilga kirar,
Silsilasi zilziladay Sohibqiron
bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, abad,
Navoiydan navo kelar,
Besh qit’aga nur taratgan beshta
doston bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, shahdam,
Saf tortgaydir Ulug‘beklar,
Ali Qushchi xushin olgan yulduz,
osmon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, yo, Rab,
So‘z yonadi otash misol,
Mashrabini dorga osgan g‘ofil
arqon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!»desam, yig‘lar,
Uvaysiylar, Nodiralar,
Momolarim nazm etgan latif
Ho‘qon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, o‘rtab,
Shahid ketgan Qodiriylar,
Avloniylar, Usmon Nosir, Fitrat,
Cho‘lpon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, titrab,
G‘ofur G‘ulom, Oybek, Qahhor,
Mirtemirlar umrin yegan buyuk
armon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, shaksiz,
Haqqim ko‘pdir dunyolarda,
Buyuklarni bot-bot bergan
pokiza qon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, endi
O‘z tilimda O‘z Bekka xos,
Men so‘z aytsam, bani bashar,
jumla jahon bosh ko‘tarar.

«Ona tilim!» desam, bugun,
Ajdodlarim, qarang, qarang,
Yana Sharqdan yangilangan
O‘zbekiston bosh ko‘tarar.

Farida AFRO‘Z

KECHIKKAN BO‘LSAKDA, JAHON BOZORIGA MILLIY NOMLAR BILAN CHIQISHIMIZ KERAK



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashida «Jahon bozoriga milliy nomlar bilan chiqishning dolzarb masalalari»ga bag‘ishlangan davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni Markaziy Kengash raisi o‘rinbosari Feruza Muhammadjonova kirish so‘zi bilan ochib, tilimiz nufuzini oshirishga qaratilgan qonun, qaror va Farmonlar ijrosini ta’minlash, shuningdek, partiyaning 2020 – 2024-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida belgilangan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini oshirish, yana-da boyitish, takomillashtirish, mamlakatimizda va xorijda keng targ‘ib qilish hamda uni ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy hayotimizda faol qo‘llanilishiga erishishga doir masalalarga e’tibor qaratdi.

> **Jamoat joylari, ko‘chalardagi tashqi reklamalar, baland-baland binolar peshtoqidagi yozuvlar, lavhalar, toponimik belgilar, atamalarning hamon xorijiy tillarda mazmun va shakllarda aks ettirilayotgani kechirib bo‘lmas holatdir.**

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o‘qituvchilari va soha mutaxassislarining «Jahon bozoriga milliy nomlar bilan chiqaylik!», «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini yana-da oshirishning dolzarb vazifalari», «Davlat tilining bugungi holati: davlat tili bo‘yicha maslahatchi lavozimi o‘zini oqlayaptimi?», «Davlat tilining nufuzini yangi bosqichga ko‘tarish borasida jamoatchilik nazoratini o‘rnatish» kabi mavzular yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, ekspertlarning munosabatlari ham eshitildi.

Ta’kidlanganidek, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 33 yil bo‘lsa-da, davlat tili haqidagi qonun ijrosining buzilish holatlariga hamon yo‘l qo‘yilmoqda. Jamoat joylari, ko‘chalardagi tashqi reklamalar, baland-baland binolar peshtoqidagi yozuvlar, lavhalar, toponimik belgilar, atamalarning hamon xorijiy tillarda, eng achinarlisi, ma’naviyatimizga, mentalitetimizga zid bo‘lgan, yoshlarimiz ongi, tafakkuri, tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazadigan mazmun va shakllarda aks ettirilayotgani kechirib bo‘lmas holatdir.

Davra suhbatida ko‘ngilli talaba-yoshlar va partiya faollaridan tarkib topgan «Til posbonlari» jamoatchilik nazorati guruhi tomonidan olib borilgan o‘rganishlar jarayonida davlat tili qoidalarining buzilish holatlari, xususan, e’lon, lavha va yozuvlardagi imlo xatolar qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ldi. Ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirilib, xorijiy tillarni o‘zbek tilidan ustun qo‘yayotgan ayrim yoshlarning xatti-harakatlari yuzasidan mulohazalar bildirildi.

Tadbir yakunida davlat tili talablari buzilishining oldini olish, bu boradagi kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida tashkilot va korxonalar, bozorlar va boshqa savdo shoxobchalari rahbarlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan subyektlarga doimiy tarzda O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonuni talablari haqida atroflicha tushunchalar berib borishga partiya faollari bosh bo‘lishlari kerakligi ta’kidlandi. Shu bilan birga xalqimizning umumiy savodxonlik darajasini oshirish maqsadida mutaxassislarni jalb etgan holda vazirliklar, tashkilot va korxonalar xodimlari uchun davlat tilida ish yuritish ko‘nikmalari, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining imlo qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha o‘quvlar, seminar-treninglar tashkil etish, adabiyot va qo‘llanmalar chop qilish, tashqi reklama bannerlari, bilbordlar, yozuvlar, lavha va e’lonlarda davlat tili qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishi ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish lozim, degan xulosaga kelindi.

Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi bo‘lim boshlig‘i



21 - OKTYABR — O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

ZASTOLYE.UZ DAN

«VAPSHE MOLODES!» GACHA



O'tgan yildan boshlab partiyaviy loyihalarimizda ishtirok etuvchilar uchun qat'iy bir qoidani belgilab qo'ydik. Ya'ni, ishtirokchilar o'zbek tili savodxonligi shartidan o'tsagina loyihaning keyingi bosqichiga jalb etiladilar. Afsuski, shundan keyin ko'plab ishtirokchilar tanlovning birinchi bosqichidayoq diktant yoki insho yozish jarayonida asosan stilistik, orfografik va imlo xatolariga yo'l qo'yib, keyingi bosqichga o'ta olmay qoldilar.

Vaholanki, biz ishtirokchilardan rus yoki ingliz tilida emas, o'z fikrlarini ona tillarida bayon etishlarini so'ragandik, xolos. Lekin alohida qayd etish joizki, o'zimiz uchun ham ushbu tajribaning natijalari xavotirli bo'ldi. Aytmoqchimizki, aksariyat tanlovlarda o'z ona tilida bexato yozgan ishtirokchi deyarli topilmadi.

Ushbu fikrimizni bir tanlovda ekspert sifatida ishtirok etgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi mutasaddilari ham tasdiqlashlari mumkin. Darvoqe, bu tanlovda maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari, shuningdek, tashkilot va korxonalarda faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilar ham ishtirok etgandilar. Natijalarni tahlil etib, ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini qayta ko'rib chiqish kerak ekanda degan fikrga bordik.

Ayni paytda hatto og'zaki nutqimizda ham muammolar borligiga guvoh bo'lyapmiz. Eng yomoni, yuqoridagidek holatlar milliy mahsulotlarimizning ham dunyo bozoriga ajnabiy nomlar bilan chiqishiga olib kelyapti. Biz saryog'imizni «Zastolye», eng baland binomizni «Nest one», ovqatlanish shoxobchamizni «Vapshe molodes» deb nomlayotgan, boz ustiga shu nomda qo'shiq kuylayotgan va hatto shunday nom tushirilgan kiyimlarni kiyib faxrlanib yurgan, «Moy kazan» tozalashga oson» deb har kuni manfaat ilinjida TVda «sayrayotgan» paytimizda, qo'shnilarimiz milliy ismlari reestrini yaratyapti. Boshqacha aytganda, til bo'yicha sun'iy tafakkurni amalga joriy etmoqda.

Bas, shunday ekan bu masala nafaqat «Milliy tiklanish»ni, balki o'zbekman, o'zbekistonlikman, degan har bir fuqaroni o'ylantirib, xavotirga solishi kerak. Bizningcha, ushbu masalaga yechim topmay turib, jadid bobolarimiz haqida gapirishga ma'naviy haqqimiz yo'q aslida.

Millatning ruhi bilan hazillashmaylik. Zero, alifboni bir asr davomida 5 marotaba o'zgartirgan, ikki hamda uch yozuvli avlodni voyaga yetkazgan ham o'zimiz!

Bu kecha «Milliy tiklanish»ning muhtasham majlislar zalida zukko tilchilarimiz, ustoz adabiyotshunos olimlarimiz ishtirokidagi tadbirdan keyingi o'ylar edi...

Feruza MUHAMMADJANOVA



BU HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZ

O'zini o'z millatiga mansub deb bilgan har qanday inson uchun o'z ona tili bebaho boylikdir.

Tilni hurmat qilish, uning naqadar bebaho boylik ekanini anglagan holda asrash, sofligini ta'minlash – bugun har birimizning muqaddas burchimizga aylanishi lozim.

Ayniqsa, til masalasiga turlicha yondashilayotgan bugungi kunlarimizda ona tilining sofligini saqlash, jamiyatda uning yuksalishiga erishishda targ'ibot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

1989-yilning 21-oktyabri o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan tarixiy sana bo'lib, shu kundan boshlab ona tilimizga hurmat bilan qarash rasmiy maqom bilan belgilandi. Chindan ham til – bu millatning mustahkam qo'rg'oni bo'lishi bilan birga avlodlar uchun yuqori ma'naviy meros hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham davlat tili o'zbek tili etib belgilangan. Shunday ekan, hujjatlar ham o'zbek tilida olib borilishiga mas'uliyat bilan yondashilsa, har bir xodim davlat tilida to'liq ish yurita olsa, jamiyatimizda tilning obro'si va ahamiyati yana-da oshadi.

Bugun yurtimizda ona tilining ravnaqi, ertangi kelajagi yo'lida samarali ishlar olib borilmoqda.

2020-yil 10-aprel kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan qonunga muvofiq, 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. O'shandan beri ayni kunda ta'lim muassasalarida, korxona va tashkilotlarda til bayramiga bag'ishlangan tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlovlar tashkil etilmoqda.

Matbuot va ommaviy axborot vositalarida tilning xalqimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar, eshittirishlar namoyish etilib, maqolalar yoritilmoqda. O'tkazilayotgan chora-tadbirlar har bir vatandoshimizga ona tilining naqadar ahamiyatli ekanligini anglashlariga turtki bo'lmoqda.

Ayni paytda bu boradagi ishlarda yana-da mas'ullikni oshirib borsak, shunga yarasha tilimiz ravnaq topib boraveradi.

Ruslan DJUMAMURATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

...ANDISHADAN UZOQLASHYAPMIZ



«...ko'zimning nuri, belimning quvvati, hayotimning mevasi o'g'limiz mullo Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim, alhamdulilloh, biz – duogo'y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do'stlaringiz munda Haq Taoloning hifzi himoyasida sihat va salomat bo'lib, ko'z nurimizning duoiy jonini subhi shom, balki alad-davom Robbul olamindan rajo (umid) va tamanno istak etmakdamiz. Janobi haq bod fursatlarda, yaqin va sayid-baxtli soatlarda to'kis tugallik bilan diydor ko'rishmakka nasib va ro'zi qilsin...».

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek hoji tomonidan o'g'li Otabekka yozilgan maktubdagi samimiy hurmat, munosabat aks etgan ushbu nomadagi bitiklar, shubhasiz, o'zbek tilining go'zalligi, jozibadorligini belgilab, qalbingizni junbushga keltiradi.

Aytish kerak, o'zbek tili tarixan nihoyatda boy tildir. Shu bois ham ona tilimiz bugungi kungacha yetib keldi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tilimizning yana-da go'zalligini saqlashda alloma, olim fuzalolar, shoir, yozuvchilarimizning sa'y-harakati, tinimsiz mehnatlari beqiyosdir.

– Agar tillar tarixi haqida gapiradigan bo'lsak, Yevropada eng chiroyli til deb fransuz tilini e'tirof etishadi. O'rta Osiyoda esa eng chiroyli tillardan bittasi o'zbek tili hisoblanadi, – deydi tarix fanlari doktori, professor Shopo'lat Shaydullayev. – Tilimiz chindan nihoyatda jozibador. Jozibadorligining birinchi alomatlaridan biri, agar til jozibador bo'lsa, o'sha xalqdan juda ko'p shoirlar, yozuvchilar chiqadi. Bizda ham xuddi shunday. Ayrim tillar dag'alroq. Bu tilni kamsitishmas. Masalan, bitta misol keltirib o'taman. Do'stimiz, ham o'rtog'imiz, tarix fanlari doktori, professor T.Mkirtichov bilan ko'pgina xalqaro kanferensiyalarda birga bo'lamiz. Moderatorlar do'stimizning ismini aytishga qiynaladi.

Qayd etish joizki, bugun – globallashuv davrida tilning sofligini saqlashga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu borada ziyolilarimiz jamiyatda o'zbek tiliga bo'lgan munosabatning yomonlashib borayotganligi, hatto millatning ilg'or vakili deb hisoblanadigan kishilarning ham o'z ona tiliga nisbatan e'tiborsizligi kishini tashvishlantiradi.

Tashqaridan kelib bizni tilimizni hech kim boyitib bermaydi, albatta. O'zini shu yurt vakili deb bilgan har bir fuqaro buni bilishi kerak. Tilni asrab-avaylash, e'zozlash har bir o'zbek millatining kunlik hayot tarziga aylansagina tilimiz ravonlashib, rivojlanib boradi. Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlarini kamdan kam mutaxassis to'g'ridan to'g'ri tushuna oladi. Bu bor haqiqat. Shuning uchun ham Alisher Navoiy asarlarida bugungi kunda unitilib ketgan so'zlarni tiklash, shu so'zlarni qabul qilishni yo'lga qo'ysak, tilimizning jozibadorligi yana-da oshardi. Bu so'zlar baxshichilikda, tarixiy adabiyotlarda ham mavjud. Amir Temir va Temuriylar davriga oid bo'lgan tarixiy asarlarda ham juda ko'p. Mana shu tarixiy adabiyotlarda uchraydigan jozibador so'zlarni hayotimizga olib kirishdan, so'zlarni boyishidan qo'rqmaslik kerak, – deydi olim.

Ma'lumki, har qanday davlat mustaqilligining belgilaridan biri uning davlat tiliga ega ekanligidadir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va davlat tili haqidagi qonunning joriy etilishi mustaqilligimizning muhim sharti hisoblanadi. Shunga qaramasdan til masalasida hanuz muammolarimiz talaygina. Soha mutaxassislari bugungi kunning asosiy muammolaridan birini tilimizni milliy an'nalar bilan boyitib borishga ehtiyoj tobora ortib borayotganligi bilan izohlashmoqda.

– Arxeologiyada sirlangan sopol degan tushuncha bor. O'zbek tilida ham bu bitta so'z bilan, ya'ni sirlangan sopol so'zi bilan yoziladi. Ammo sirlangan sopolning rus tilida o'nlab, ya'ni har bir sirlangan sopolning alohida nomi bor. Aslida sirlangan sopol bitta umumiy nom to'liq yechim emas. Tilimiz nihoyatda boy. Tilimizni boyitishda biz tarixchilar ham hissa qo'shishimiz kerak, – deydi Sh.Shaydullayev. Sopol idishning turlariga qarab nom qo'yishimiz darkor. Mana masalan: oq asosli sirlangan sopol, moviy asosli sirlangan sopol singari so'zlarni fanga kiritish kerak. Chunki shu sopolning turlari bilan yuritilgan so'zlar sopol turini, qaysi davrga mansubligini belgilab berishi bilan birgalikda so'zimizning boyib borishida muhim o'rin tutadi. Tilimiz boyib borsa, uning ilmiylik jihati ham ortib boradi. Aks holda qadimgi tarix bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar rus tilida ijod qilishga majbur bo'laveradilar.

O'zbek tilini asrab-avaylash, rivojlantirish, yana-da sayqalligini oshirish aslida tilshunos olimlarimizning ishi. Ammo bularni birgina soha xodimlariga tashlab qo'yish to'g'ri emas. Tilni boyishiga keng jamoatchilik, shuningdek, barcha soha xodimlari bab-barobar hissa qo'shishlari darkor.

Aytish kerak, bugungi katta bir qusurimiz hayot tarzimizda, shaharlarimizda, qishloqlarimizdagi (o'zga tillarda nomlangan) reklamalarda aks etmoqda. Undan ham achinarlisi aksariyat reklama bannerlari, oshxona, kafe, bar va do'konlardagi nomlar xorijiy tillarda yozilyapti.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, chet tillardan kirib kelgan so'zlarning o'rinsiz ishlatilishi nutqni xiralashtiradi. Bunday so'zlar miyaga ham, yurakka ham ozuqa bermaydi, aksincha, kishiga qattiq ta'sir qilib, uning e'tiroziga sabab bo'ladi. Abdulla Qodiriy: «So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak», – degan edi.

Xulosa o'rnida aytish kerak, har birimiz o'z ona tilimizda sodda va ravon gapirishimiz, chetdan kirib kelayotgan so'zlarni ishlatishdan saqlanishimiz darkor. Bu bilan o'zbek tilini asrab-avaylagan, kelajak avlodga bus-butunligicha saqlab qolishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Nargiza RAHMATULLAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi rahbari, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi deputati

QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM



O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi arafasida partiyaning Namangan viloyati Kengashi tomonidan Davlatobod tumanidagi "Yangi O'zbekiston – yoshlar ziyo maskani"da "Qadring baland bo'lsin, ona tilim" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Unda shoir, yozuvchilar, ustoz va murabbiylar, talabalar hamda partiya faollari ishtirok etdilar.

Tadbirda so'zga chiqqan ishtirokchilar o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etishini ta'kidladilar.

Talabalar tomonidan mavzuga oid tayyorlangan badiiy chiqishlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi. Haftalik doirasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, yangi iqtidor egalarini kashf etish, ona tilimizga bo'lgan munosabatni o'z maqolalari orqali ifoda etish maqsadida viloyat Kengashi "Yoshlar qanoti" tomonidan e'lon qilingan "O'zbek tili – milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimiz timsoli" mavzusida maqolalar tanlovi yakunlanib, taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi.

Tadbir so'nggida tanlov g'oliblari va ishtirokchilarga viloyat kengashi raisi Dilnoza Azizova tomonidan partiyaning maxsus diplomi hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Partiyaning Namangan viloyati Kengashi matbuot xizmati

MULOHAZA

Afsuski, "ko'cha"da hamon shaxsiy ma'lumot bilan bog'liq o'g'irliklar davom etmoqda. Balki UzIMEI uchun mas'ullar ko'chaga bir bor nazar solganlarida 200-300 ming so'm (20-30 AQSH dollari) evaziga istalgan telefonning IMEI-kodini tizimga kiritib berish xizmati mavjudligini bilishgan bo'larmidi?



MAHALLALARDAGI LOYIHALARGA 1.3 TRILLION SO'M

Kuni kecha mahallalarda infratuzilmani shakllantirish yoki borini rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish va sarflanishini qat'iy nazorat qilish masalalari muhokama qilindi.

Xabaringiz bor, noyabr-dekabr oylarida mahalla infratuzilmasini yaxshilashga 700 milliard so'm ajratilishi belgilangan edi.

Jumladan, ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag' hajmi 2,2 barobarga oshirildi. "Tashabbusli byudjet" doirasida esa 1,5 mingta mahalladagi loyihalarga 1 trillion 300 milliard so'm yo'naltirilishi belgilandi.

Quvonarlisi, 2023-yildan "Obod mahalla", "Obod qishloq", yo'l qurilishi va boshqa davlat investitsiya dasturlari faqat "Tashabbusli byudjet" doirasida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Bunda dasturlar va xarajatlar faqat va faqat aholi ovoz bergan loyihalarga yo'naltiriladi. Shu bois "Tashabbusli byudjet" loyihalari uchun 8 trillion so'm berilishi qat'iy ma'qullandi.

Shu o'rinda eng asosiysi, qurilish ishlarida talon-tarojlik va qonunbuzilishlarning oldini olish, ularni ochiq-oshkora tizim asosida amalga oshirish lozimligini ta'kidlash joiz.

Shundan kelib chiqib, ushbu jarayonlarni nazorat qilishda aholi ishtiroki kengaytirilib, obyektlarni qabul qilish komissiyalariga mahalla raislari kiritiladigan bo'ldi.

Qiymati 10 milliard so'mdan oshgan qurilish obyektlariga esa xorijiy texnik-nazorat mutaxassislari jalb etiladi va loyiha hujjatlari "Qurilish resurslari klassifikatori" platformasi asosida ishlab chiqilib, pudratchilar va qurilish haqidagi ma'lumotlar jamoatchilik uchun ochiq e'lon qilib boriladigan bo'ldi.

Yana bir gap: shu o'rinda ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish borasida joylarda deputatlar saylovchilar bilan birgalikda, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishlari muhim o'rin tutishini ta'kidlash lozim.

@deputatfzayniyev

BEZBETROQ TIZIMIMIZ BOR



SHAXSIY MA'LUMOTLAR O'G'IRLANMOQDA, MAS'ULLAR NEGA JIM?

Rivojlanayotgan texnika asrida turli ixtirolar orqali insoniyatga qator qulayliklar yaratilayotgani yaxshi, albatta. Ammo firibgarlikning avj olishiga ham yo'l ochayotgani nihoyatda xavotirlidir. Xususan, keyingi paytda ko'plab fuqarolarimiz UzIMEI tizimi sababli shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlanayotganini yozishmoqda, shikoyat, arz-dod qilishgan bo'lsa-da, ammo bunga qarshi tayinli choralar ko'rilmayapti. Taajjub, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlayotgan jinoiy guruhlar "tankasi" shunchalik kuchlimidiki, ularga biror chora ko'rish shu qadar qiyin bo'lsa? Ajablanarlisi, bu borada shikoyat yo'llagan fuqarolardan biri xorijga chiqib kelgach, kimlardir uning nomiga IMEI-kodini rasmiylashtirib olibdi. Xo'sh, bu tizimni yaratgan hukumat nega uning xavfsizligini ta'minlay olmayapti? Misol uchun: nega shu choqqacha eng oddiy usul – sizning pasport raqamingizga boshqalar IMEI-kod ro'yxatga olgan yoki olmaganini aniqlaydigan, agar shunday bo'lsa, unda bu IMEI-kodni o'chirish to'g'risida onlayn ariza yuboruvchi platforma yaratilmadi.

Afsuski, "ko'cha"da hamon shaxsiy ma'lumot bilan bog'liq o'g'irliklar davom etmoqda. Balki UzIMEI uchun mas'ullar ko'chaga bir bor nazar solganlarida 200-300 ming so'm (20-30 AQSH dollari) evaziga istalgan telefonning IMEI-kodini tizimga kiritib berish xizmati mavjudligini bilishgan bo'larmidi? Balki bilar ham... agar bu hukumatga ma'lum bo'lsa nima uchun biron chora ko'rilmayapti?

Aslida agar xohish bo'lsa, bunday platforma yaratishga uzog'i bilan 1-2 oy vaqt ketadi. Bas shunday ekan, haqli bir savol tug'iladi: salkam 2 yildan buyon shu ishni amalga oshirmayotgan mas'ullar kim tomon? Shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlanayotgan fuqarolar tomonmi yoki qora bozor orqali haligacha minglab telefonlar olib kirib, noqonuniy IMEI-kod ro'yxatga olish tizimini ham silliqqina yo'lga qo'yib olgan jinoiy guruhlar tomon? Kimdir menga bu borada haligacha qat'iy choralar ko'rishga shoshilmayotgan mas'ullarning jinoiy to'dalar tomonda emas, deya kafolat bera oladimi?

Masalaning boshqa tomoni ham bor: begona kishining pasporti ma'lumotlarini qo'lga kiritding, degani bu osongina IMEI-kodni ro'yxatga olish mumkin degani emas. Buning uchun o'sha pasport egasi nomiga olingan telefon raqami ham bo'lishi kerak. Demak, 2 ta variantdan biri: yoki jinoiy to'dalar begonalar nomiga minglab telefon raqamlarni rasmiylashtirmoqda, yoki UzIMEI tizimidagi shaxslar orqali bu cheklovni aylanib o'tishga yo'l topishgan.

Ikkala holatda ham jinoiy qilmish mavjud. Nega unda haligacha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yoki unisi, yoki bunisi bo'yicha qaqshatqich choralar ko'rilmayapti?

Bunaqa rasvo tizimni yaratganlar sal uyalsa bo'larmidi?!

Lekin bilaman, gapirganim, yozganim baribir foydasiz. UzIMEI tizimi haqida yozgan avvalgi postlarim ham havoga uchgan. Nima qilamiz endi, peshonamizga bitgan shunaqa bitta bezbet tizimimiz bor, noiloj, deb yuraveramizmi?

P.S.: Vazirlar Mahkamasining 14.10.2022-yildagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalariga (https://t.me/xushnudbek/16542) ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilganim, mamlakatda amalga oshirilayotgan UZIMEI tizimi islohotini tanqid qilib, odamlarda bu tizimga ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan materialni joylashtirganim uchun uzr so'rayman. Endi har bir shunaqa tanqidimiz uchun oldindan uzr so'rab qo'ymasak, kim bilsin, Odob komissiyasi ustimizdan ish ochib yubormasin yana.

@xushnudbek

✓ Hududlarda

KEYIN KECH BO'LISHI MUMKIN



Dilfuza JALILOVA, partiyaning Qashqadaryo viloyati Kengashi raisi o'rinbosari

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun sayyoramizda 6 mingga yaqin til va shevalar bo'lib, ularning faqat ikki yuzga yaqini og'zaki va yozma jihatdan to'la shakllangan. Ular orasida o'zbek tili ham bor. Ona tilimizning dunyodagi mukammal tillar ro'yxatidan o'rin olishida esa Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarning beqiyos hissasi bor, albatta. Xususan, Mahmud Qoshg'ariy XV asrda, ya'ni turkiy xalqlar adabiyotida ham fors-tojik tili mutlaqo hukmron mavqega ega bo'lgan bir paytda o'z asarlarini turkiyda bitib, tilimizning badiiy latofatini, qolaversa, «Muhokamat ul-lug'atayin» asari orqali tilimizning grammatik, sintaktik jihatdan afzalliklarini asoslab bergan.

Ayonki, har bir tilning rivojlanib, sayqallanib borishi doimo shu tilda so'zlashuvchi kishilardan e'tibor, o'z ona tili rivoji yo'lida amaliy harakatlar, izlanish va intilishlarni talab etadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti va boshqa turli omillar ta'sirida dunyodagi ayrim tillar yana-da qudrat kasb etib, unda so'zlashuvchilar soni oshib borayotgan bo'lsa, ba'zilari o'z qamrovini yo'qotib bormoqda. Qachondir bunday xavf o'zbek tilimiz bilan ham yuz bermasligi uchun ham bugun qat'iy harakatlar olib borish talab etiladi.

Ammo, qonun hujjatlarida belgilab berilgan talablarga bepisand qarayotgan aksariyat idora va tashkilotlar, ayniqsa, televideniye orqali efirga uzatilayotgan reklama roliklarida o'zbek tiliga bo'lgan loqayd munosabatlarga chek qo'yilmas ekan, ona tilimizning asl holicha kelajak avlodga yetib borishi xavfi kuchayaveradi.

Bu gap bejiz emasligini Qarshi shahrining markaziy ko'chalarida joylashgan savdo do'konlari va xizmat ko'rsatish shoxobchalarining nomlariga qarab ham bilish mumkin. Reklama bannerlariniku gapirmasa ham bo'ladi. To'g'ri, reklama qilinayotgan mahsulotlarning aksariyati xorijniki bo'lgani uchun chet tilida yozilgan, ammo izohlar o'zbek tilida berilishi mumkin ediku!

Bunday holatlar tabiiyki, o'zbek tili rivojiga nisbatan xavotirimizni oshirib, ona tilimizning mavqeiga putur yetkazadi. Aslida Vatanga bo'lgan muhabbat ham, sadoqat ham tilga e'tibordan boshlanadi. Zero, onamiz allasi orqali jonimiz, ongu shuurimizga singgan ona tilimizni asrash, unga hurmat ko'rsatish borasida yoshlarga o'rnak bo'lish o'z qo'limizda. Toki tilimizga bo'lgan munosabat o'zgarmas ekan, o'zbek tili rivoji haqidagi gaplar qog'ozda qolib ketaveradi. Shunday ekan, qonunan 33 yillik yo'lni bosib o'tgan, o'zligimiz, maqsad-muddaomizni anglatish, eng inju tuyg'ularimizni ifoda etish vositasi bo'lgan ONA TILIMiz oldidagi burchimizni unutmaylik!

✓ Xotira

ODIL YOQUBOV – MOHIR TARJIMON, MUNAQQID VA PUBLITSIST

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov 1926-yilning 20-oktyabr kuni Janubiy Qozog'iston viloyatining Qarnoq qishlog'ida tavallud topgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1955-59), «Literaturnaya gazeta»ning O'zbekistondagi maxsus muxbiri, «O'zbekfilm» kinostudiyasi va O'zbekiston davlat kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir (1963-67), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari (1970-82) vazifalarida faoliyat yuritgan.

Shuningdek, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi bosh muharriri (1982-87), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining birinchi kotibi (1987-91), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasi raisi (1991-yildan) va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining birinchi vitse-prezidenti (1995-yildan) bo'lib ishlagan.

Dastlabki asari — «Tengdoshlar» qissasi 1951-yilda e'lon qilingan. «Dastlabki qadam» (1953), «Ikki muhabbat» (1955) hikoyalar to'plami, «Tilla uzuk» (1961) qissa va hikoyalar to'plamida muhabbatni insonga xos ulug', muqaddas xislat sifatida tasvirlaydi. «Muqaddas» qissasida (1960) Odil Yoqubovning chinakam yozuvchiga xos uslubi va yo'li namoyon bo'ldi.

«Ulug'bek xazinasi» romani (1973) olim va hukmdor Ulug'bek davridagi ijtimoiy munosabatlar, olis o'tmishimizdagi nur va zulmat o'rtasidagi kurash haqidagi asardir.

Chingiz Aytmatov o'z maktubida mazkur asar haqida shunday deydi:

«Bugun men chuqur mamnuniyat bilan, vijdon amriga itoat etgan holda, senga allaqachon yo'llashim lozim bo'lgan ushbu xatni yozmoqdaman. «Ulug'bek xazinasi»ni, garchi bir oz kechikib bo'lsada, zo'r qiziqish va maroq bilan o'qib chiqdim. Yaxshi kitob haqida zavq bilan yozish mumkin. Sening asaring yuksak proza namunasidir. Badiiy jihatdan barkamol bo'lgan bu tarixiy roman haqiqatan meni larzaga soldi. O'quvchini to'lqinlantira olish mumtoz san'at asariga xos birlamchi alomatdir. Yana men bu safar turkiy xalqlar vakili sifatida chuqur mamnuniyat va g'urur-iftixor hissini tuydim».

Adib «Ko'hna dunyo» (1982) romanida o'rta asrda yashab jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar Ibn Sino va Beruniyning fojiali taqdiri qalamga olingan.

«Diyonat» (1977), «Oq qushlar, oppoq qushlar» (1988), «Adolat manzili» (1998) romanlarida o'zbek xalqining XX asrning 60-70-yillaridagi hayoti va kurashi manzaralari haqqoniy tasvirlangan.

Odil Yoqubov «Chin muhabbat» (1955), «Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi», «Yurak yonmog'i kerak» (1958), «Olma gullaganda» (1961), «Muzaffar Temur» (1996), «Bir koshona sirlari» (2000) kabi



pyesalar, «Dilbarim», «Bahor yomg'irlari» kinossenariylari (1971) muallifi.

Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1977), «Do'stlik» (1994), «El-yurt hurmati» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan.

Odil Yoqubov mohir tarjimon, munaqqid, publitsist edi. U Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Abdulla Oripov va boshqalar ijodiga bag'ishlangan adabiy portret va maqolalar yozdi. Asarlari chet tillarga, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillariga tarjima qilindi. Odil Yoqubov ijodi haqida adabiyotshunoslar Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Leonid Terakoyan, Umarali Normashov, Norboy Xudoyberganov, Botir Norboyev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari qilishgan. Odil Yoqubov 2009-yil 21-dekabr kuni Toshkent shahrida vafot etdi.

O'zA

✓ Kuting!



Milliy
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

> Keyin o‘g‘liga qarab vazminlik bilan dedi: – O‘g‘lim! Agar boshimni ko‘tarib yurishimga sabab bo‘la olmasang, hech bo‘lmaganda uni egib yurishimga sabab bo‘lma!

O‘QITUVCHINING YOQASIDAN QO‘LINGNI TORT, nomard!



Bugun qayerda, qanday davrada bo‘lmang, «maktabda ishlayman» desangiz bas! Sizga atalgan maslahatu shikoyatlardan qo‘njingiz to‘ladi. Kimdir «hozirgi zamon yoshlarini eplash qiyin» desa, boshqasi «ota-onasini aytganini qilmaydigan bola o‘qituvchinikini qilarmidi?», degan mazmunda nutq irod qiladi...

Bir yig‘indagi yosh kelinning gapi hammasidan oshib tushdi. Nima emish, hozir tuzukroq dars beradigan o‘qituvchining o‘zi qolmabdi. E, astag‘firulloh. Gapi shu qadar og‘ir botdiki, yuziga tarsaki tortvorgim keldi. Lekin ota-bobolarimiz aytganidek, nodonga teng bo‘lib, ahmoq bo‘lgim kelmadi. O‘zim o‘qituvchi bo‘lmasamda, shunday fikrli insonlarni ko‘rsam «dod» solgim keladi. Ularga qarata: «Azizim, o‘sha siz beboshlikda ayblayotgan zamona bolalarini beandisha qilib tarbiyalayotgan kim? Hamma o‘quvchi ham siz aytganchalik bebosh emas, ota-onasidan ham ko‘proq ustozining aytganlariga quloq tutadigan, o‘qituvchini hurmat qiladigan o‘quvchilar serob. Afsuski, o‘qituvchining maqomini «bir tiyin» deguvchi insonlar sabab ko‘pchilikning bu kasbdan ko‘ngli sovib boryapti...

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda jami 685,4 ming nafar pedagog bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida – 116 ming, umumta’lim muassasalarida – 510 ming, akademik litseylarda – 3,3, kasb-hunar maktablarida – 9,9, kollejlarda – 3,9, texnikumlarda – 4,9, oliy ta’limda esa 37,4 ming pedagog ishlayapti. 2022-yil sentyabr holatiga ko‘ra, maktablarimiz soni 10 085 tani, maktab o‘quvchilari soni esa 6,4 mln.ni tashkil etgan.

Ko‘rinib turibdiki, pedagoglar armiyasi tobora ko‘payib boryapti. Bu yaxshi, albatta. Ammo ana shu «armiya»ning asosiy kuchi bo‘lgan muhtaram o‘qituvchining yoqasiga yopishayotgan qo‘llar ham ko‘payib borayotir. Bir mushohada qiling-a, o‘rta avlod vakillari orasida biror marta bo‘lsin muallimidan tarsaki yegani yoki gap eshitmagani bo‘lmasa kerak. Vazifani bajarmadikmi, jazo tayin «2» bahoga qo‘shimcha sifatida burchakda turardik. Butun sinf oldida izza bo‘lish odatiy hol edi. O‘sha paytda ham farzandini yonini olib maktabga kelgan ota-onalar yo‘q emasdi. Ammo ularning andishasi bor edi. «Muallimdan bolasining nega jazolanganini bilgach, ba’zan uzr so‘rar, ba’zan «unda jazolab juda to‘g‘ri qilibsiz-da. Yana shunaqa qilsa, shapaloq tortavering...», deya ustozga hurmat ham ko‘rsatishardi. Taassufki, o‘qituvchining yoqasiga chang solib, o‘quvchilari oldida haqoratlash madaniyatli insonning ishi emas. Bir muddat maktabda targ‘ibotchi bo‘lib ishladim. Odatdagi kunlarning birida yoshi kattaroq o‘qituvchini ko‘zi jiqqa yosh maktabdan chiqib ketayotganini ko‘rib qoldim. Biror yaqinini yo‘qotibdimikan, degan o‘yda sabr tiladim. U «Barcha ustozlarga sabr bersin» dediyu, unsiz yig‘lagancha chiqib ketdi. Maktabga kirib vaziyatdan xabar topdim. 30 yildan ortiq maktab tuprog‘i changini «yutgan» pedagogga o‘quvchisining onasi tomonidan nohaqlik, qo‘pollik qilinibdi. Afsuski, «Ustoz otangdek ulug‘» hikmati o‘z qadrini yo‘qotyapti chog‘i, dedi yana bir o‘qituvchi bosh chayqab. Yuzing ko‘zing demabdiya, tarbiyasiz...

Ammo ming afsuski, bu voqeaga guvoh bo‘lgan o‘qituvchilarning birortasi kelib, «Ustozni yoqasidan qo‘lingni tort, nomard!», deyishga jur’at topolmabdilar...

Shundan keyin qizg‘in muhokama boshlandi. Birov shuning uchun ham o‘quvchimni urushishga qo‘rqaman desa, boshqasi, bu xatoni takrorlay ko‘rmang, bunaqa ota-onalar ko‘chada tutib olib, urishdan ham qaytmaydi, derdi. Afsuski, ustozning ko‘nglini og‘ritgan o‘sha kaltafahm ona bugungi tarsakini ustozning yuziga emas, farzandining kelajagiga tortganini anglamagan bo‘lsa ham kerak. Shuurimda, o‘sha tarsaki, ustozning yoqasidan olgan qo‘llar tarozining bir pallasida bo‘lsa, ikkinchi pallasida butun boshli avlodning kelajagi haqidagi xavotir turardi. Ana shu asnoda arzimagan bahona bilan muallimning yoqasiga chang solibmiz, bundan ko‘zi namlangan, nafsoniyati toptalgan ustozning holati yosh pedagoglarga ibrat bo‘ldi, deb o‘ylaysizmi, endi ular darsini yaxshi o‘zlashtirmayotgan, kamiga a’lochi tengdoshlariga halal berib, tartibsizlik qilayotgan o‘quvchiga tanbeh berishga jazm qila oladi, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q, albatta. O‘qituvchi nega farzandini jazoladi? Nega aynan uning bolasi o‘qituvchisi bilan murosa qilolmayapti? Voqeaning mohiyatini ham surishtirmay o‘qituvchini ayblayotgan (quyushqondan chiqqanda haqoratlab) ota-onalar bu harakatlari aslida farzandining yonini olish emas, uning tarbiyasini buzish ekanini nahotki tushunishmayapti. Shukrki, bundaylarning soni ko‘p emas. Eng yomoni, xotin-qiz pedagoglar yoqasidan ushlagan qo‘llarni kechirar, balki unutar. Ammo erkak o‘qituvchilarning g‘ururi bunday munosabatni javobsiz qoldirmasligiga shubha yo‘q. Shuning uchun ham ko‘plab diplomli pedagoglar boshqa sohalarni tanlamoqdalar. Buning asosiy sababi, ish haqi ham emas. Balki aksariyat erkak pedagoglar o‘quvchisining ota-onasidan haqorat eshitib, tarsaki yeb obro‘yini to‘kkanidan ko‘ra, qo‘y boqishni ma’qul ko‘rmoqdalar.

2020-yil 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatdagi ta’lim sohasini rivojlantirishdagi muhim masalalar borasida to‘xtalib: «O‘qituvchilarning huquqlari davlat himoyasida bo‘lishi, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa ishlarga jalb qilish javobgarlikka sabab bo‘lishini qonun bilan qat’iy belgilash kerak», deya ta’kidlagan edilar. O‘tgan ikki yil mobaynida o‘qituvchilarga qo‘shimcha imtiyoz yaratish, ularni munosib rag‘batlantirish va maqomini mustahkamlash borasida qator amaliy ishlar olib borildi. Eng muhimi, pedagoglar majburiy mehnatdan butunlay ozod qilindilar. Ammo hanuzgacha yuqoridagi kabi aksariyat ota-onalarning o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizligi ko‘p hollarda jazosiz qolmoqda.

To‘g‘ri, o‘qituvchi o‘quvchini urushi, unga qo‘pol munosabatda bo‘lishi mumkin emas. Bunga, aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biroq bolani tergash, tanbeh berish ham «jinoyat»ga tenglashtirilsa, oxiri nima bo‘ladi? Zero, o‘quvchi o‘qituvchidan hayiqmasa, istalgan vaqtida darsni buzsa, muallimni masxaralab ustidan kulsa... Xo‘sh, pedagog hurmatsizlangan joyda ta’lim-tarbiya haqida gap bo‘lishi mumkinmi?

Ma’lumki, ayni paytda Finlandiya, Yaponiya kabi davlatlarning ta’lim tizimidagi amaliyoti butun dunyo mamlakatlariga tajriba sifatida qo‘llashga tavsiya etilmoqda. Juda qisqa muddat ichida dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin olgan Yaponiya sobiq bosh vaziri Sindzo Abedan Yaponiya taraqqiyotining sababini so‘rashganida: «Biz o‘qituvchilarga vazirning maoshini, diplomatning daxlsizligini va imperatorning hurmatini berdik», – deb javob qaytargan ekan...

«Ertalab ishga keldim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, maktabning tashqi devoriga bo‘yoq bilan xunik bir gap yozib qo‘yishibdi. Surishtirib, «muallif»ni aniqladik. Darrov uning otasini maktabga chaqirdik. Xavotirlangan ota devordagi yozuvni ko‘rgach, o‘g‘lini chaqirib berishimizni so‘radi. Aytganini qildik. U o‘g‘lidan haqiqatdan ham bu ishni u qilganmi yo‘qmi sekin so‘radi. O‘g‘li biroz o‘ylanib turib, tan oldi. So‘ngra ota cho‘ntagidan telefonini chiqarib, bo‘yoqchiga telefon qilib, devorni oldingidan ham chiroyli qilib bo‘yab berishga va’da berdi. Keyin o‘g‘liga qarab vazminlik bilan dedi: – O‘g‘lim! Agar boshimni ko‘tarib yurishimga sabab bo‘la olmasang, hech bo‘lmaganda uni egib yurishimga sabab bo‘lma!

So‘ngra u bizdan ruxsat so‘rab maktabdan chiqib ketdi. Men o‘quvchiga qaradim. U qo‘li bilan yuzini ushlagancha yig‘lar edi. Men otaning bolasiga ta’siridan hayratda qoldim. Shundan keyin o‘quvchi bizdan kechirim so‘rab, pushaymonligini izhor qildi. Keyinchalik o‘sha bola maktabning eng old o‘quvchilaridan biriga aylandi. Bu kabi ibratli voqealar ko‘p va bularning barchasi ota-onalarning farzandi ko‘z o‘ngida o‘qituvchiga bo‘lgan hurmati namunasidir.

Mahbuba KARIMOVA



TARBIYASIZ TARBIYA JAMIYATNI NOGIRON QILADI

Sir emaski, har bir zamon va makonda axloq masalasi eng dolzarb sanalgan. Bugun eng ko‘p iddao qilinayotgan «yoshlar tarbiyasi buzilib ketdi», kalimasi simfoniyaga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Buni hamma – oqsoqollar, o‘rta yoshlilar, hatto, yoshlarning o‘zlari ham o‘qtin-o‘qtin faromush takrorlamoqda. Kommunistik axloq normalari va «sovet kishisi» tamsilidan sitilib chiqish jarayoni hamda undan keyingi yillardan to bugungi kunlarimizgacha biz o‘zimizni qidiramiz. Bugungi jamiyatga ulgu tanlaymiz. Rang-baranglashib ketayotgan tendensiyalar orasida dindorlik ham, konservatorlik ham, kosmopolitizmu liberalizm ham ko‘zga ko‘rinadi. Ayni shu behalovatlik umumaxloq normalarini ham “gibrid-duragay” formatga keltirdi, deyish mumkin. Afsuski, ayni kunlarda jamiyatning aksariyat mansabdor vakillari o‘z axloqi bilan maqtanadigan darajadan biroz uzoqlashdi. Buni nafaqat biz, balki hukumat ham angladi.

Xususan, yaqinda hukumat davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarini tasdiqladi. Unga ko‘ra, davlat xizmatchisi halol va kamtar bo‘lishi, jamoatchilik tanqidiga yo‘liqmasligi, tanqidga uchraganda esa ta’qib qilmasligi, birovning manfaatini ko‘zlab sovg‘a, foyda va mukofot olmasligi lozim. Qiziq, endi shundan keyin rahbarlarimiz birdan mehribonu mushfiq bo‘lib qoladimi?! Menga, umuman olganda, ushbu yo‘riqnomaning texnologiyasi g‘alati tuyuldi. Unda bugun rahbarlarimizda bor barcha salbiy sifatlar birma-bir sanalgan va shularni qilmaslik tavsiya etilgan. Agar mulozim shu xatolarga yo‘l qo‘ysa, intizomiy jazoga tortilishi hamda ogohlantirilishi, rasmiy uzrnoma keltirishi, tanbeh berilishi mumkinligi keltirilgan...

Bundan men shunday tasavvurga keldimki, a’yonlarimiz ilgari shu intizomsizliklarni qilib kelgan va shubhada bo‘lganki, jazo chorasi kutilmagan va qat’iy bo‘lishi mumkin. Endi esa hammasi oydinlashdi. Rasmiy hujjat bilan tasdiqlandi: intizomiy chora, ogohlantirish, uzrnoma yoki tanbeh... Tanbehni «poxol do‘q» desayam bo‘ladi.

Xullas, ushbu ishning men uchun bir xursand bo‘ladigan, bir xafa bo‘ladigan jihati chiqib qoldi. Ya’ni, birinchidan, jamiyatdagi axloq masalasi yaxshi emasligi siyosiy darajada aytildi, ikkinchidan, hukumatimiz bunga e’tibor qaratdi. Ba’zi muhokamali jihatlari bo‘lsada, bunga nazar tashlangani yaxshi bo‘ldi. Chunki jamiyatdagi muhitni ma’lum ma’noda siyosatni yuritayotganlar shakllantirishadi.

platforma.uz

✓ Hududlarda

JURNALISTLAR HAM MAS’UL

Milliy matbuot markazida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan «Jurnalistning til boyligi yoki tahrirga ehtiyoj bormi...» mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Unda ommaviy axborot vositalarining bosh muharrirlari, jurnalist kadrlar yetishtiruvchi oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi-professorlari, tilshunos-olimlar, talabalar, ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar, uyushma va uning qoshidagi ijodiy kengashlar mas’ullari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda aytilganidek, Prezidentimizning «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan tasdiqlangan «2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi» ijrosi doirasida yurtimizda «Til – millat ko‘zgusi» mavzusida bayram tadbirlari o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi Olimjon O‘sarov davlatimiz rahbarining tegishli farmon va qarorlari ijrosi doirasida yurtimizda davlat tilini rivojlantirish, uni boyitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, jurnalistlarning til qoidalariga rioya qilishi, ularning so‘z boyligi o‘ta yuqori bo‘lishi, to‘g‘ri tahrir qila olishi muhimligi alohida qayd etildi.

Uyushma axborot xizmati ma’lumotiga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda 50 milliondan ortiq o‘zbek istiqomat qiladi. 5 ming 600 dan ko‘proq tillar mavjud. Shundan 200 tasi davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi quvonarlidir. Bu uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibador ekanidan dalolat beradi.

Davra suhbatida «Jahon adabiyoti» jurnali bosh muharriri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev hamda «Tafakkur» jurnali bo‘lim mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Sultonmurod Olim ma’ruza qildi.

Darhaqiqat, ona tilimizga hurmat, mas’uliyat, jiddiy e’tibor bilan yondashish yangiliklar jarchisi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining ham burchidir. Shu sababli faoliyati va yo‘nalish turidan qat’i nazar, matnga savodli, e’tiborli, katta mas’uliyat bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ochiq va erkin muloqot tarzida o‘tgan tadbir savol-javob, mulohaza va muzokaralarga boy bo‘ldi.

N.USMONOVA, O‘zA



NAZM VA NASR BEKATI



«Avesto» o'zbek tiliga tarjima qilinsa, hamma otashparast bo'lib ketadi...» deb vahima ichra ayuhannos soladiganlar, manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan, Rumiy, G'azzoliylar o'z bitiklarida sahih sanagan hadislarni «mavzu'» deb aytadiganlar ham shunday chalamullalar orasidan yetishib chiqadi.



Odil IKROM:

«Adabiyot – TAQIQ MEVASI...»

– Jaloliddin Rumiyning yetti asrdan buyon Sharq tafakkuri va badiiy kalom muxlislarini o'ziga maftun etib kelayotgan «Ma'naviy masnaviy» asarining olti kitobi tarjimasini yakunladingiz. Xayrli bo'lsin! Suhbatimizni shu mavzudan boshlasak...

– Ma'rifat olamining shoh asari, olti kitobdan iborat «Ma'naviy masnaviy» – ramali musaddasi mahzuf va ramali musaddasi maqsur vaznida bitilgan, 25 632 baytdan iborat, Qur'oni karim hamda Imom al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih»idan keyingi yo'ldoshi, sherigi yo'q kitoblardan sanaladigan yirik hajmli asar. Rumiyshunos olim Tojiboy Sultoniy fikriga ko'ra, «Masnaviy»dagi baytlar miqdori Hofiz devonidan Sa'diyning butun boshli «Kulliyoti»dagi baytlar miqdori bilan tengdir.

«Masnaviy»ga ilk tavajjuhim o'tgan asrning saksoninchi yillari oxirida, ya'ni 1963-yilda Rasul Hodizoda tomonidan nashrga tayyorlangan «Hikoyathoi xalqii «Masnavy» («Masnaviy»da xalq hikoyatlari») kitobi mutolaasi bilan boshlangan...

Shu o'rinda e'tirof etib o'tishim kerakki, tarjimaga qo'l urgan kezlarim men qishloqda, adabiy muhitdan butunlay yiroqda yashaganman. Tarjimaning ilk namunalarini ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilganimda Sanjar Nazar, Ulug'bek Hamdam, Jabbor Eshonqul kabi millat oydinlari meni qo'llab-quvvatlashgan. Shu insonlarning ma'naviy rag'bati bilan bu asar tarjimasiga jiddiy kirishish uchun jur'at topdim. To'rtinchi kitobning yarmi, beshinchi, oltinchi kitoblarni qisqa muddatda to'liq o'girishimga, ya'ni yakunlashimga shu savollar muallifining ma'naviy ko'magi sabab bo'lganini alohida ta'kidlamay ilojim yo'q.

– Bu tarjima uchun o'n ikki yil vaqt sarfladingiz. Tarjimaning muvaffaqiyatli chiqqanini taniqli adabiyotshunos olimlar e'tirof etishmoqda. Shunga qaramay, savol tug'iladi: «Ma'naviy masnaviy»ning bir qismini rahmatli shoirimiz Asqar Mahkam sharhi bilan o'zbek tiliga o'girgan edi, keyinroq Jamol Kamol olti kitobini o'girdi. Yana bir bor ushbu asar tarjimasiga qo'l urishga sizni nima majbur qildi? Tarjima juda mashaqqatli mehnat. O'n ikki yillik umringizni o'zbek tiliga o'girilmagan boshqa bir asar tarjimasi yoki o'z ijodingiz uchun sarflasangiz bo'lmasmidi?

– O'zbekistonda «Masnaviy» tarjimasi va sharhiga dastlab Asqar Mahkam qo'l urganini alohida ta'kidlash joiz. Afsuski, bevaqt o'lim tufayli ezgu niyatlar bilan boshlangan ilmiy-tadqiqot darajasidagi bu xayrli ish birinchi kitobning qariyb yarmida to'xtab qoldi (ayni paytda do'stimiz Abdulloh Zuhur «Masnaviy» sharhini mening tarjimam asosida davom ettirmoqda). Keyinchalik Jamol Kamol tarjimasida «Masnaviy» bir necha marta to'liq nashr etildi. Jamol akani R.Fishning «Jaloliddin Rumiy» asari tarjimoni sifatida yaxshi bilardim va «Masnaviy» tarjimasi ham ko'ngildagidek amalga oshirilgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Ammo... Tarjimonning mehnatini, jur'atini e'tirof etgan va zarracha kamsitmagan holda «Masnaviy»ni qaytadan tarjima qilish zarurligi va unga kirishganim sabablarini aytib o'tmoqchiman:

Yuqorida ta'kidlaganimdek, «Masnaviy» ramali musaddasi mahzuf va ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan. Tarjimon shu vaznni saqlab qolishga uringan, ammo juda ko'p o'rinlarda vazn talabiga rioya qilinmagan. Juda ko'p baytlardagi qofiyalar ham ohangdoshlikdan yiroq.

Olti kitobdan iborat bu asardagi birgina kitobning o'zida Qur'oni karimning olti yuzdan ortiq oyatiga, yuzdan ortiq hadisga ishora bor. Oldingi tarjimada ana shu ishoralarning o'ndan bir qismi ham ko'rsatilmagan yoki izoh berilmagan. Izohlarning deyarli yo'qligi yoki mavjud izohlarning ham shoshqaloqlik bilan, uzuq-yuluq holda keltirilgani «Masnaviy» tarjimasi bilan o'quvchi orasida juda katta to'siq paydo qilgan.

Bir asarni o'zbek tiliga tarjima qilishdan asosiy maqsad – o'zbek o'quvchisini o'sha asar mazmun-mohiyatidan ogoh etishdir. Yomon yoki o'rtacha o'girilgan asarlarni asl nusxa bilan solishtirib o'qish uchun hammada ham imkoniyat bo'lavermaydi. Oqibatda, ne-ne sara asarlar o'z shukuhini yo'qotadi. Afsuski, «Masnaviy»ning amalga oshirilgan avvalgi tarjimasi ham ana shunday ayanchli qismatdan mosuvo emas. Tarjimada asl nusxadagi forsiy iboralar, qofiyalar deyarli saqlanib qolingan, tusmollar, o'zbek o'quvchisi uchun tushunarsiz jumlalar, baytlar qalashib yotibdi, asar go'yoki «shiru shakar» uslubida o'girilganday taassurot qoldiradi o'quvchida. Bu ham yetmaganday, aksariyat baytlar xato o'girilgan. Hurmatli o'quvchilar vaqtini o'g'irlamaslik uchun ayrim misollar bilan cheklanaman:

1. Yuz sabrin sindirar bir parcha tosh,
Chashma oqqay sharqirab, aylab talosh. (J.Kamol tarjimasi)
(sabo' – sabr emas, ko'za)
Sad sabo'ro bishkanad yak pora sang
V-ob chashma mezahonad bedirang.
Bitta tosh yuz ko'zani sindirgusi,
Lek buloqni qandayin tindirgusi? (O.Ikrom tarjimasi).

2. Bilmadim mendan nechun yuz burganing,
Ikki ko'zim, shulmi do'stni ko'rganing? (J.Kamol tarjimasi)
(du dida – ikki ko'z emas, birni ikki ko'rguvchi, ya'ni g'ilay)
Man nadonam on chi andeshiday?
Ey du dida, do'stro chun
Nega bilmay, ne xayoling ichra bor?
Ey g'ilay, qandoq ko'ringay senga Yor? (O.Ikrom tarjimasi).

3. «Men»u «Biz»ni bo'yla bunyod aylading,
O'z-o'zing birlan magar nard o'ynading. (J.Kamol tarjimasi)
(nardi xidmat boxtan – nard o'ynash emas, o'zgalarning xizmatini qilish)
In manu mo bahri on barsoxty,
To tu bo xud nardi xidmat boxty.
«Men»u «biz»ni sen yaratding, kecha-kun
O'zgalarning xizmatin qilmoq uchun. (O.Ikrom tarjimasi).

4. Tangri deb Namrudga chun nom ildilar,
Makr ila chun pastu badnom qildilar. (J.Kamol tarjimasi)
(Namrud qayerdan keldi?)
Hamchu amrad, ki Xudo nomash kunand,
To bad-in solus dar domash kunand.

> **– ADABIYOT – ONGLI JAMIYATNING MAHSULI.** BIR XIL FIKRLAYDIGAN, TIRIKCHILIK TASHVISHIDAN BIR LAHZA HAM XALOS BO'LMAYDIGAN, QO'LI BO'SHADI DEGUNCHA YENGIL-YELPI QO'SHIQLAR ESHITIB O'ZINI OVUTADIGAN KIMSALAR DARDIGA DAVO BORMI?..

Har soqoli chiqmaganni deb «xudo»,
Avrab arqonga etarlar mubtalo. (O.Ikrom tarjimasi).

5. Bitta shaxs ko'zga ko'ringay inchunin,
Goh to'lin oydir nazarda, gohi tun. (J.Kamol tarjimasi)
(mohy – oy emas, baliq, shast – qarmoq, tun emas)
K-andar in yak shaxs har du fe'l hast,
Goh mohy boshad yvu goh shast.
Unda har ikki sifat kamroq erur,
Goh baliq ul, gohida qarmoq erur. (O.Ikrom tarjimasi).

6. Bo'yla maydirkim: mayi xumi balo,
Ta'siri bir tunda bo'lmasdir ado. (J.Kamol tarjimasi)
Bu baytdagi bale – «balo» emas, «ha» degani. Qur'oni karim oyatiga ishora:
(Ey Rasulim!) Vaqtida Rabbingiz Odam farzandlarining pushti kamarlaridan (o'tgan va bo'lajak) zurriyotlarini (zarralar holida) chiqardi va ularni o'z-o'zlariga guvoh qildi: «Men sizlarning Rabbingiz emasmanmi?» (dedi). Ular: «Ha, (Sen Rabbimizsan)! Biz guvoh bo'ldik» dedilar. (Bu esa dunyoda kufrga ketib) qiyomat kunida: «Biz bundan bexabar edik» demasliklaringiz uchundir («A'rof» surasi, 172-oyat).
Xosa in boda, ki az xummi balist,
Na maye, ki mastii o' yakshabist.
Gar sharob «Ha» xummidan yetgusi, bas,
Bir kecha mast aylaguvchi may emas. (O.Ikrom tarjimasi).

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, tarjimon fors tili nozikliklaridan unchalik xabardor emas. Meni «Masnaviy» tarjimasiga undagan sabablardan ayrimlarini yo'l-yo'lakay aytdim. Vallohi a'lam!

– Bir yil oldin «Hurriyat» gazetasida chop etilgan suhbatda Jamol Kamol: «Orzuga ayb yo'q, mayli, tarjima etishsin. Ammo bir sharti bor. Tarjimon o'z tarjimasini mening tarjimam darajasiga yetkazishi, hattoki undan oshirishi darkor. Aks holda, qilgan mehnatiga kuyib qolishi hech gapmas. Kitobxon yaxshi tarjima turganda, har nechuk, o'rtamiyona tarjimani o'qimaydi», deb yozgandi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, demak, siz «Masnaviy»ni avvalgi tarjimonlardan o'tkazib tarjima qildim, deb o'ylaysiz?

– Odob doirasidan tashqaridagi iddao egasining darajasiga tushib, u bilan adi-badi aytishish – odobdan emas... Bu hodisa maqomi xususidagi xulosani o'quvchilar hukmiga, qolaversa, tarjimon vijdoniga havola etgan ma'qul, menimcha. Haqiqiy bahoni o'quvchi beradi.

– Fors-tojik adabiyoti va o'zbek adabiyoti bilan birday tanishsiz. «Zamonaviy tojik she'riyati antologiyasi»da oltmishdan ortiq tojik shoirlari she'rlarini tarjima qilgansiz. Bu ikki millatning zamonaviy adabiyotini taqqoslab, nima deya olasiz? Umuman, bugungi adabiy jarayondan ko'nglingiz to'ladimi?

– Darhaqiqat, «Zamonaviy tojik she'riyati antologiyasi»da oltmishdan ortiq tojik shoirlarining ash'oridan namunalar, ular haqida ma'lumotlar bor. Bu kitob o'zbek adabiyoti uchun kerak, deb o'ylayman va yaqin kunlarda nashr etilib qolsa, ajabmas.

Bugungi adabiy jarayondan qoniqish-qoniqmasligim haqida esa hech narsa deya olmayman. Chunki ayrim yosh ijodkorlarni hisobga olmaganda, bugungi kunda adabiy jarayonning o'zi yo'qdek, mening nazarimda.

Ochig'ini aytishim kerak, ba'zan men adabiy muhitni adabiyotga aloqasi bo'lmagan do'stlarim orasidan ko'proq topaman. Ular she'r yoki hikoya yozishmaydi, o'z fe'l-atvori, noyob qalbi bilan she'rga, hikoyaga aylangan. Adabiyot faqat so'z emas. Adabiyot bu – qalb, odob, mantiq degani...

– Siz nafaqat mohir tarjimon, balki katta shoir hamsiz. Ammo keyingi yillarda yangi she'rlaringizdan juda kam o'qidik. Sizdan yangi she'r kutayotgan muxlislaringizga buni qanday izohlaysiz?

– Shoirlik va tarjimonlikni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Yaxshi shoir yaxshi tarjimon hamdir. Rus she'riyati yuz yildan ortiq davr mobaynida o'zbek tiliga o'girilmoqda. Ularning aksariyati hashar yo'li yoxud biror tadbir bahonasida amalga oshirilgan. Shu boisdan ham Erkin Vohidov tarjimasidagi Yesenin, Abdulla Sher tarjimasidagi Axmatovaning turkum she'rlari o'zbek o'quvchisiga yetib kelgan, xolos. Chet el adabiyotidan o'girilgan «Faust», «Ilohiy komediya»ning «Do'zax» qismi, iste'dodli shoirlar tomonidan o'girilgan yana ayrim tarjima asarlar ham ▶

✓ Taklif

VATANDOSHMI, YURTDOSH?



Ayni paytda «fuqaro» so'zi o'rniga «vatandosh» qo'llanilayapti. Aslida fuqaro so'ziga men ham qarshiman. Axir nom odamni ham, boshqa jonivorni ham boshqaradi (otlar, itlar, ...ismini biladi), qolaversa, taqdiriga ta'sir qiladi (ba'zan bola ko'p kasal bo'lsa, ismi o'zgartiriladi). Bir xalq maqolida «Agar odamni o'n kun cho'chqa, deb chaqirsang, o'n birinchi kun xurillay boshlaydi» deyilganidek, atalmish oxiri o'z qismatiga rozi bo'ladi: «Bir faqirman-da, nima qilaman chiranib», degandek.

Shu ma'noda bu harakat e'tirofga loyiq. Men ham bu so'z o'rniga uning «bekinson» hamda «yasharman» singari muqobillarini taklif qilgandim, ko'pchilikka ma'qul bo'lmadi, shekilli. Mayli. Endi «vatandosh» haqida. Uning o'zagi «vatan» – arabcha, -dosh esa forscha bo'lishi mumkin, balki turkiydir. Vatan kindik qoni tomgan tuproq, uni muhojirlar (xorijda yurganlar) ham qo'llaydi: «tug'ilgan vatanim» tarzida. Lekin ularning bu vatanda fuqaroligi bo'lmasligi mumkin. Shu jihatdan «vatandosh»dan «yurtdosh» so'zi maqsadga muvofiqroq. Yurt ham tug'ilgan, ham aynan yashayotgan makon hisoblanadi. Shunday ekan «fuqaro» so'zi o'rniga «yurtdosh» («Yurtboshi» so'zining ham o'zagi) so'zini qo'llash yaxshi emasmi?!

Hakim SATTORIY

OBUNA –2023!
2023-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH» GAZETASIGA OBUNA BO'LING!
Obuna indeksi 158

> O‘qimay qo‘yganligimiz bizni shu darajaga yetaklab kelayapti-ki, ishqilib, erta-indin tahririyatga qo‘ng‘iroq qilishib, Akmal Ikromov yoki Fayzulla Xo‘jayevlarning qo‘l telefonlarini so‘rashmasa bo‘ldi.

ZARRABIN

ZANGLAGAN tilla kalit



YOXUD ABDULLA AVLONIY BOBOMIZNING «SOTKA» ISHLATGANI TILGA OLINGAN MULOQOTDAN KEYINGI O‘YLAR

e’tirofga loyiq. Tarjimon mehnatiga baho berishda aksariyat hollarda uning asl nusxadan o‘girganiga urg‘u berishadi. Bu hodisani inkor etmoqchi emasman. Ammo she’riy tarjimaga qo‘l urgan ijodkor sermahsul, serg‘ayratligidan tashqari iste’dodli shoir ham bo‘lmasa, u asl nusxadan o‘giradimi, mo‘tabar qo‘lyozmadan o‘giradimi, baribir foydasiz. Bu jarayondan tarjimon arzimagan moddiy foyda ko‘rishi mumkindir, ammo o‘zbek adabiyoti, o‘zbek o‘quvchisi uchun bundan zarracha naf yo‘q.

She’r – ko‘ngil ishi. Shoir yuz yil yashagan taqdirda ham, sandiqday-sandiqday she’riy tomliklar yaratishini aqlimga sig‘dirolmayman. Shuning uchun ijodkorga: tarjimaga berilib ketib, she’rdan uzoqlashding, – qabilidagi ta’nalar o‘rinsiz.

– She’rlaringizda mumtoz adabiyotga xos belgilar ham, zamonaviy modern adabiyotiga xos belgilar ham uchraydi. O‘zingizni adabiyotdagi qaysi yo‘nalish vakili deb bilasiz?

– O‘zini tanigan ijodkor og‘zining suvini oqizib: «men falon oqimda ijod qilaman», deb hargiz aytmasa kerak. Bu iddao shaklbozlar uchun bir niqob, xolos. Adabiy jarayondagi har qanday yo‘nalish umri, jonu tan, gulu ifor yanglig‘, shakl va mazmun mutanosibligi bilan o‘lchanadi. Muhammad Iqbol bir ruboiysida: «Bu millat odamlarida ko‘ngil bor, ammo ko‘ngil ichra Yori yo‘q...», deganda mazmundan mosuvo shaklni ham nazarda tutgandir, ehtimol.

Har qanday oqim, yo‘nalish shaklini bir qafas deb tasavvur qilsak, qafasning mazmun-mohiyati uning munaqqash yo oddiyligi, o‘z katta yo kichikligi, dumaloq yo to‘rtburchakligida emas, balki ichida shodonmi, nolonmi, sayrab turgan tirik bulbulning bor-yo‘qligida. Yangi oqim yarataman deb, suvni chelakda emas, elakda tashiydiganlar ham bor...

– Shu o‘rinda ijodkor mahorati, dunyoqarashidagi kenglik, mahdudlik, shoir va shaxs mavzusiga to‘xtalib o‘tsangiz.

– Dunyoviy bilim bilan birga Qur’onu hadisdan ham yaxshi xabardorlarni ogoh, unga amal ham qilganlarni esa butun odam deb bilaman. Johillar, mutaassiblar har ikki bilimdan mutlaqo xabarsizlar yoxud ulardan to‘liq ogoh mo‘minlar orasidan emas, balki chalamullalardan chiqadi. Bu toifadagilar yoshi bir joyga yetgunga qadar: namozga kechikkan kishi safga qo‘shilishi uchun ikki qadam qo‘yishi kerakmi yoki uch qadammi? – qabilidagi shariatning eng ibtidoiy qoidalari xususidagi bahsu taloshlardan bo‘shamaydi. «Avesto» o‘zbek tiliga tarjima qilinsa, hamma otashparast bo‘lib ketadi...» deb vahima ichra ayuhannos soladiganlar, manfaatlariga to‘g‘ri kelmaydigan, Rumiy, G‘azzoliylar o‘z bitiklarida sahih sanagan hadislarni «mavzu» deb aytadiganlar ham shunday chalamullalar orasidan yetishib chiqadi.

Bunday mahdudlik hodisasi adabiyotda ham avj olayotgani, ijodkorning ijodi bir chetda qolib, tashqi ko‘rinishi, soch-soqolining muhokama qilinishi, silliqligi va g‘adir-budirligiga qarab baholanishi – achinarli hol.

Taqiq – Odam Ato davridan buyon hozirgacha o‘ziga xos tashviq vazifasini bearmon bajarib kelmoqda. Jinlarning kofiru musulmoni bo‘lgani kabi, taqiqning ham foydali va zararli jihatlari mavjud... Agar o‘sha davrdagi hukumat maxsus qaror chiqarib, nomini zikr etishni taqiqlamaganida, nom qoldirish ilinjida Artemida ibodatxonasiga o‘t qo‘ygan Gerostratni o‘z davrida ham, bugun ham biror tirik jon eslamasligi mumkin edi...

Sho‘rolar tuzumida butun boshli taqiq mahkamalari faoliyat yuritar, taqiqqa uchragan mavzular ham istagancha topilardi. Aksariyat ijodkorlar damini ichga yutgan holda, taqiqlangan mavzuda rost gapni ramzu ishoralar bilan aytib, taqiqqa o‘rin qoldirmaslik uchun katta iste’dod, shuningdek, jasorat talab etilardi. Zero, adabiyot taqiqdan o‘sib chiqadi. O‘sha tuzumda yashab, ijod qilgan, Xudo bergan iste’dodini bandani madh etishdek noravo yumushga sarflamagan, Rumiy ta’biri bilan aytganda, «tilla belkurakda go‘ng ortish» ila mashg‘ul bo‘lmay, o‘z jabhasida maktab yarata olgan Shaxslar borligini inkor etolmaymiz. Chinakam ijodkor shaxsning vazifasi – yalang‘och «shov-shuv»ga harislik, baqiroqlik yoxud yaltoqlanish emas, balki har qanday keskin sharoitda ham so‘zning ichki qudratini his etish, millat, qolaversa, butun insoniyat taqdiridagi g‘aflatdan, uyg‘onishdan ogoh etish.

Adabiyotning rivojlanishida faqat iste’dodlarning emas, balki iste’dodni qadrlay oladigan shaxslarning ham xizmati beqiyos. Bunday shaxslar chinakam millatparvar, hokisor, haqiqiy iste’dodlilarga bag‘rikeng, sezgir, kuzatuvchan bo‘ladi. Agar Mirzo Tursunzodadek bir arbob tan olib, marhamat ko‘rsatmaganda, tojik adabiyotining ming yilda bir marta dunyoga keladigan Loyiq Sheralidek zabardast shoiri Panjakentdagi qaysidir bir gazetada nom-nishonsiz muxbir bo‘lib o‘tib ketardi... Adabiyotimizning yaqin o‘tmishida ham ma’lum shaxslarning beminnat xayrixohligi, sharofati bilan ro‘yobga chiqqan iqtidorli ijodkorlar kam emas. R.Parfi bilan Shukrullo, Asqad Muxtor, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev bilan N.Fozilov, U.Azim bilan Shuhrat, X.Davron bilan Zulfiya, Sh.Rahmon bilan S.Azimov, A.Mahkam bilan N.Qobul, Sh.Jo‘rayev, M.Yusuf bilan N.Safarov... lar orasidagi beta’ma, beg‘ubor ustoz-shogirdlik munosabati behad samarali kechganini tan olmaslik hamda o‘sha udum sog‘inchini his etmaslik mumkin emas.

– Adabiyot jamiyatni o‘zgartirishga qodir, degan fikrga qo‘shilasizmi?

– Adabiyot – ongli jamiyatning mahsuli. Bir xil fikrlaydigan, tirikchilik tashvishidan bir lahza ham xalos bo‘lmaydigan, qo‘li bo‘shadi deguncha yengil-yelpi qo‘shiqlar eshitib o‘zini ovutadigan kimsalar dardiga davo bormi?.. Tojik shoiri Ozaraxshning: «Tanimda bir yirtiq ko‘ylagim bilan zamonning aybini qandoq yoparman...», satrlarini eslang.

– She’rning qiymatini muxlisining ko‘p yoki kamligi bilan belgilashadi ko‘pincha...

– Shoir – ko‘ngil va idrok qamrovidagi shaxs. She’rxon – do‘st. Chinakam do‘stlar esa ko‘p bo‘lmaydi. Shu ma’noda, she’r qadri, qiymati she’rni qabul qiladigan she’rxon miqdorining ko‘pu kamligi bilan o‘lchanmaydi.

She’r qiymati shoirning rostu yolg‘oni, samimiyligi yoxud soxtaligi, jiddiyligi yoki bachkanaligi bilan o‘lchanadi. Birinchi o‘rinda – mahorat. Shoir qaysi uslubda yozmasin, fikrini, tuyg‘ularini mahorat bilan odamiy tilda samimiy ifodalashi shart. Aks holda, u shoir emas, nazmbozdir.

– Dunyoda mehr-muhabbatdan ko‘ra jiddiyroq narsa bormi? Hayot haqidagi bugungi xulosangizni bilmoqchi edim.

– Dunyoda ma’rifat bor, haqiqat bor. Shu ikki umrboqiy hodisaga asoslangan mehr-muhabbat va boshqa har qanday tuyg‘ularning umri uzoqdir.

Tashakkur!

OYDINNISO suhbatlashdi, O‘zA

Yaqinda bu rahbarning til, ma’naviyat va ma’rifat borasidagi qizg‘in faoliyati haqidagi nutqini viloyatning nufuzli yig‘inlaridan birida eshitgandim. Hatto uning bu chiqishi viloyat televideniyesida ham ko‘rsatilgan edi. Nihoyatda aqlli mulohaza-yu mushohadalarini eshitib, unga nisbatan «jurnalistik mehrim» tovlangan va uning faoliyati haqida gazetaga kattaroq maqola tayyorlashni reja ham qilib qo‘ygandim.

U yoki bu nashrning viloyatdagi muxbiri bo‘lib ishlasang, kunda kunora turfa xil odamlar, turli kasb egalari bilan uchrashib, hamsuhbat bo‘laverarkansan.

Yuqorida aytganimdek, kasbim taqozosi bois o‘sha ma’naviyatchi rahbar bilan bir necha bor uchrashishga to‘g‘ri keldi. Shunday uchrashuvlardan birida u mendan qo‘l telefonim raqamini so‘radi.

Tashrif qog‘ozimni olgach, albatta, qo‘ng‘iroq qilajagini aytdi... Oradan qancha o‘tdi eslolmayman, bir kuni telefonim jiringlab qoldi, qarasam o‘sha ma’naviyatchi rahbar. Uzoqqa cho‘zilgan salom-alikdan so‘ng u maqsadga ko‘chdi.

– Anovi kishi borku, shoirmi yoki yozuvchimidi, hozir eslolmayapman, Siz bilasiz, tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot deb she’r yozganku. O‘sha shoirning ism-familiyasi bilan she’rining to‘liq matni juda zarur bo‘lib qoldi. Yordam bervoring, uka, tumanimiz hokimi viloyat hokimligida ma’naviyat bo‘yicha so‘zga chiqadigan bo‘lib qolibdi. Bugun erta sahardan rosa urinib, nutqni tayyorlab kirsam, o‘sha shoirning shu she’rini ham qo‘shing, deb ortimga qaytarib yubordi. To‘g‘risi, hokimimiz shoirniyam, uning she’riniyam bilmas ekanlar.

Shunga o‘sha she’r va shoirning ism-familiyasini aytib yuborsangiz, iltimos hokimimiz kutib turibdilar... Telefonda uning oxirgi so‘zlari arang eshitildi.

Ochig‘i, bunday iltimosni eshitib boshimga birov gurzi bilan tushirgandek bo‘ldi, avval ko‘z oldim qorong‘ilashdi, keyinchalik a’zoi badanim zirqiray boshladi.

To‘g‘risi, quloqlarimga ham ishonmaydigan darajada edim.

Birozdan so‘ng o‘zimni bosib olib, ma’naviyatchi rahbarga qo‘ng‘iroq qildim: mabodo, shoirning telefon raqami kerak emasmi?

Ey, sotkasini keyin berarsiz, hozir she’ri bilan ism-familiyasini aytib yubora qoling... Bu safar iltijoli ovoz sal uzoqroqdan eshitildi. Ammo biroz o‘ylab ko‘rib, unga rahmim kela boshladi. Shunday yaratilgan bo‘lsa unda nima ayb. Bunaqa toifadagilar shundayligicha o‘tib ketadi. Ochig‘i, bundaylarga da’vo ham yo‘q...

Xullas o‘ylab-o‘ylab, ma’naviyatchi tanishimga ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy haqida erinmay so‘zlab berdim. Uning XX asr boshlarida yashab o‘tganligi-yu, jadidchilik borasidagi faoliyati, milliy istiqlol, milliy g‘oya, milliy mafkura va tilimiz rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, ayniqsa, yosh avlodni – millat kelajagi sanalmish bolalarning ta’lim-tarbiyasi borasida amalga oshirgan ishlarini hikoya qilib, yakunda uning o‘sha mashhur «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» iborasi she’r emas balki keskin da’vat, g‘oya ekanini tushuntirishga harakat qildim. Shundan keyin rahbar do‘stim qayta-qayta rahmat aytib, go‘shakni joyiga qo‘ydi.

Shundan so‘ng qo‘lim ishga bormay, hozirgina bo‘lib o‘tgan suhbatdan goh kulgim qistadi, goh jonim hiqildog‘imga qadaldi.

Dilda esa turli savollar, mulohazalar paydo bo‘lardi:

Qayoqqa qarab ketayapmiz o‘zi?! Bu mutolaa qilmay qo‘yganligimizning ilk nishonalarimi?!

Millatning kelgusi taqdirini o‘ylab, shu yo‘lda jon olib, jon bergan bobolarimizni tanimasak, ularning mangu, o‘lmas g‘oyalari mag‘zini chaqolmay, ularni she’r deb atab yursak?

Ma’naviyat va ma’rifat sohalariga milliardlab mablag‘ ajratilayotgan bir pallada Abdulla Avloniyning ism-familiyasini so‘rab yurishimiz sharmandalik emasmi?!

Bunga vijdonimiz qanday yo‘l qo‘yayapti?

Eng yomoni tilimiz, ma’naviyat borasida bu ishni do‘ndirdik, u ishni qoyillatdik, – deya ko‘kragiga mushtlaydiganlar Alisher Navoiyning bir baytini yoddan aytib berolmasa, Abdulla Avloniyni tanimasa...

O‘qimay qo‘yganligimiz bizni shu darajaga yetaklab kelayapti-ki, ishqilib, erta-indin tahririyatga qo‘ng‘iroq qilishib, Akmal Ikromov yoki Fayzulla Xo‘jayevlarning qo‘l telefonlarini so‘rashmasa bo‘ldi.

Esimda, bundan bir yilcha muqaddam Sirdaryo viloyatining chekka tumanlaridagi katta bir tashkilot rahbari bilan uchrashganimda u menga yaqinda tumanda katta bayram tadbiri o‘tkazilishini, unga poytaxtdan mashhur shoir va yozuvchilar, ular orasida, albatta, Abdulla Oripov va Muhammad Yusuflar ham kelishini g‘ururlanib aytib qoldi. Bu gapni eshitib, tilim tanglayimga yopishib qolayozgandi, o‘shanda.

Ming nadomat bilan ta’kidlash joizki bunday rahbarlar oramizda haliyam bor!

To‘g‘ri, guruch kurmaksiz bo‘lmaydi. Biroq o‘sha kurmak ham guruch orasida evi va epaqasi bilan bo‘lishi kerak emasmi?!

Oramizda bugungi faol hayotimizda uchrayotgan bunday kurmaklarning tarbiyasini olgan o‘zbekning oddiy bolasi ertaga o‘sha «kurmak»larning ortidan ergashib alaloqibat ularning ko‘rsatmalari-yu yo‘l-yo‘rig‘iga tushib, kunlardan bir kuni Alisher Navoiy yoxud Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining uy manzillarini so‘rab yana tahririyatlarga qo‘ng‘iroq qilmasligiga kim kafolat beradi?!

Yaqinda Guliston davlat universitetida elning suyukli adibi Nurali Qobulga Chingiz Aytmatov nomidagi xalqaro mukofot topshirilganida adibga ham so‘z berildi. Yozuvchi o‘z nutqida kitobxonlikning buguni haqida uzoq gapirdi. Shunda yaqinda bir oliygohning mas’ul xodimi undan Abdulla Qahhorning salomatligi haqida so‘raganida eti jimirlab ketganini ham ming bir nadomat bilan esladi...

Mana sizga bugunning bir ko‘rinishi. Bunga esa eng asosiy sabab deyarli o‘qimay qo‘yganligimiz, mutolaani unuta boshlaganimizdir.

Tan olish kerak ko‘pchiligimiz, ayniqsa, soha vakillari bugun qo‘llariga kitob, gazeta, jurnal olmay qo‘ydilar. Xususan, obuna bilan bog‘liq teskari tashviqot aksilmilliy harakatga aylanib, ko‘pchiligimiz qo‘limizdagi gazeta yoki kitobni deraza tokchasiga yoxud stolning eng oxirgi g‘aladoniga tashlab qo‘yadigan bo‘lib qoldik.

Natijada nima bo‘ldi? Allaqachonlar u dunyoga rixlat qilgan elning yuzi, ko‘zi bo‘lgan shoiri, yozuvchilarni tumanning hosil bayramiga chorlovchi taklifnomalar yozadigan poxolmijozlar paydo bo‘la boshladi, oramizda.

Har kuni avtobusda ishga borib qaytaman. Bekatning narigi tomonida aroq-vino, berigi bo‘yida esa kattagina kitob do‘konlari bor. Bir kuni qiziqishim ustun kelib, har ikkala do‘kon mudirlaridan bir kunda necha pullik savdo qilishlarini so‘radim. Gapning rosti javobni eshitgach yoqamni ushlab qoldim...

Aroq do‘koni bir kunda o‘rtacha 15-20 mln so‘m savdo qilar, kitob do‘konida esa atigi 500-600 ming so‘mlik savdo bo‘larkan.

Mana sizga, bizda hech kim o‘qitilmaydi, kim xohlasa kitob, gazeta yoki jurnal o‘qisin xohlamasa o‘qimasin degan ajabtovur tashviqotning achchiq mevasi.

Elning suyukli adiblaridan biri Sobir O‘narning markaziy nashrlarning biriga bergan bir intervyusi shu yerda dilga biroz taskin beradi.

Ma’naviyat borasidagi bu holatlarning bari o‘tkinchi! O‘zbek xalqi doimo o‘qigan. U hech qachon kitobni tokchada chang bostirib qo‘ymaydi. Bu el o‘qiganligi bois dunyoga ne-ne buyuk daholarni yetkazib bera bildi. Xullas, oqqan daryo baribir o‘z o‘zanini topib oqaveradi. Uning o‘zanini buzmoqchi bo‘lganlar bir kun el aro sharmisor bo‘lishlari muqarrar!

Abdug‘affor OMONBOYEV, jurnalist

✓ Loyiha

AHOLINI ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLASHGA OID QAROR LOYIHASI E’LON QILINDI



Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining «Aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash va oqova suv xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirishning qo‘shimcha choralari to‘g‘risida»gi qarori loyihasi e’lon qilindi.

Unga ko‘ra, 2023-yildan boshlab har yili Davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida aholi punktlarini markazlashgan ichimlik suv va oqova suv chiqarish xizmati bilan ta’minlash uchun 50 milliard so‘m miqdorida mablag‘lar ajratib borilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, qaror bilan davlat ijtimoiy buyurtmalari doirasida aholi punktlarini markazlashgan ichimlik suvi va oqova suv chiqarish xizmati bilan ta’minlash loyihalarini nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirokida amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanadi.

Markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti yetib bormagan aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlashning manzilli ro‘yxatini shakllantirish Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda loyiha boshqaruvchisi hisoblangan NNT zimmasiga yuklatiladi.

O‘zA

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mt.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№36 (1185)
21-oktyabr 2022-yil, juma

Statistika



SENTYABR OYIDA ENG KO‘P «COBALT» AVTOMOBILI ISHLAB CHIQARILGAN

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning sentyabr oyida ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar soni:

- «Cobalt» – 9 156 dona;
- «Lacetti-Gentra» – 8 598 dona;
- «Damas» – 6 051 dona;
- «Spark» – 2 462 dona;
- «Nexia T-250» – 2 055 dona;
- Maxsus yengil avtomobillar – 2 221 dona.



Erkin VOHIDOV

Ona tilim o‘lmaydi

Notiq dedi:
«Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda».

«Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!»
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Kim darg‘azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

«Va’zingni qo‘y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi».
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».

– Hey, bu qanday aqida! –
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:
– Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:
– Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».

Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

O‘ZBEK NAVOIYNI O‘QIMAY QO‘YSA

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.
Ma’rifatdan ayri o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

El komil bo‘lmasa, yurt emas ulug‘,
Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.
Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lig‘,
Ombor to‘la g‘alla bo‘lgani shudir.

O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,
Uning «Barakalla» bo‘lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo‘lgani shudir.

KIMNI ETMAS BU KO‘NGIL SHAYDO

Dunyo ekan...
Ishq degan savdo
Bormi faqat mening boshimda?!
Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo,
Kim she’r yozmas mening yoshimda?!

Sevgi ilk bor tushdi-yu qalbga
Hayotimning bo‘ldi mazmuni.
U qo‘limga tutqazib qalam,
Ko‘zlarimdan oldi uyquni.

Oldi butun fikru xayolim,
Ketdi dildan orom, halovat.
Sevgi butun borimni olib,
She’r zavqini qoldirdi faqat.

Borliq olam ko‘zimga ming-ming
Go‘zallikka to‘lib ko‘rindi.
Gullar menga oshiq bulbulning
She’r daftari bo‘lib ko‘rindi...

Ayb etmangiz,
Do‘stlar bu savdo
Bormi faqat mening boshimda?
Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo,
Kim she’r yozmas mening yoshimda?!

✓ Taqdir

QONUNLARNI, DAVLATNI VA VATANNI HURMAT QILDIM...

Bu sud bo‘lib o‘tganiga yigirma to‘rt asrdan oshdi. Shunday bo‘lsa-da, hali-hanuz bashariyat ahlining yodidan chiqqani yo‘q va bundan keyin ham chiqmasa kerak...

Chunki u jahon tarixidagi o‘ta adolatsiz sud bo‘ldi va yetmish yoshli faylasufga nohaq o‘lim jazosini ravo ko‘rdi.

Sudda ajabtovur usul qo‘llaniladi. Kosiblar nomidan Anit, notiqlar nomidan Likon, shoirlar nomidan esa Melet da’vogar sifatida so‘zga chiqib, hamkasblarini uzluksiz masxaralab kelgani uchun aybdorga nisbatan oliy jazo tayinlashni so‘rashadi.



Suqrot esa o‘zini himoya qilish o‘rniga g‘animlari va hakamlarni battar g‘azablantiruvchi so‘zlarni aytadi. «Tag‘in meni o‘limga mahkum etib, Xudo o‘zlaringizga bergan ehsondan ayrilib qolmanglar», deya ularning jig‘iga ham tegadi. Qarabsizki, 501 nafar sudyaning 281 nafari uni aybdor deb ovoz beradi.

Hakamlar jazoni belgilashayotganida Suqrot yana sarkashlik yo‘lini tutadi. Debochasiga, agar aybi isbotlansa, arzimagan miqdorda jarima puli – 25 drahma to‘lashga rozi ekanini bildiradi.

So‘ngra «Aslida bu ishlarim uchun meni jazolashlaring emas, Davlat kengashida tekin tushlik berishlaring kerak... Chamamda, Tangri kaminani uzzukun shahar kezib, sizlarni uyg‘otish uchun yuborgan. Menga o‘xshaganlarni osonlikcha topolmaysizlar.

Gapimga ishonsangiz, hayotimni saqlab qolarsiz, aksincha bo‘lsa, so‘na kabi chaqib, jahli qo‘zigan odamlar kabi urib o‘ldirarsiz. U holda Xudo to mening o‘rnimga boshqa birovni yo‘llaguncha umringiz g‘aflatda o‘tadi», deydi.

Tabiiyki, bunday qochirimlar qasoskorlar qahrini junbushga keltiradi. Shu tariqa keyingi safar qarshi ovoz berganlar soni 361 nafarga yetadi. Suqrot esa «otdan tushsa-da, egardan tushmaydi».

– Nachora! – deydi sud nihoyasida so‘nggi so‘zini aytar ekan, iztehzoli ohangda. – Endi men o‘limga yuz tutaman, sizlar yashamoq uchun tarqalasizlar. Lekin qay birimiz yaxshilik sari yo‘l olishimiz yolg‘izgina Yaratganga ayon!..

Inchunin, hakamlar keksa faylasufni o‘limga loyiq ko‘rishadi. Sud nihoyalagach, do‘stlari unga hukm ijro etilgunga qadar qamoqdan qochishni taklif qilishadi. Ammo Suqrot bu taklifni batamom rad etadi.

– Men, – deydi sababini tushuntirib, – umrim bo‘yi qonunlarni, davlatni, vatanni hurmat qilib, shu darajaga yetishdim. Baski, nega endi ajalga ro‘baro‘ bo‘lgach, ularni tashlab qochishim kerak?! Agar qonun va davlat yomon bo‘lib, meni qoniqtirmaganida, oldinroq ketishim yoki ularni o‘zgartirish uchun kurashishim lozim edi.

Men esa bunday qilmaganman. Demak, endi qonun va davlatga so‘zsiz itoat etishim kerak!

Chindan ham Suqrot o‘z lafziga sodiq qoldi. Ammo u jallod tomonidan qatl etilmadi, balki hibsxonada o‘z ixtiyori ila bir kosa og‘u ichib, miloddan avvalgi 399-yili dorilbaqoga rixlat qildi.

✓ Xalqaro hayot

BRITANIYA ICHKI ISHLAR VAZIRI ISTE’FO BERDI



Buyuk Britaniya Ichki ishlar vaziri Suella Braverman chorshanba kuni shaxsiy elektron pochtasidan xizmat vazifalarini bajarishda foydalangani uchun iste’fo berdi.

“Bugun ertalab men hukumatning migratsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida siyosiy qarorlar ustida hamkorlikda ish olib borayotgan parlamentdagi ishonchli hamkasbimga shaxsiy elektron pochtamdan rasmiy hujjat yubordim. Bu mavjud tartib-qoidaning texnik buzilishidir”, deb yozdi u Britaniya Bosh vaziri Liz Trass nomiga bitilgan maktubida.

Uning qo‘shimcha qilishicha, jo‘natilgan hujjatdagi ma’lumotlarning aksariyati Britaniya parlamenti Jamoatchilik palatasi a’zolari e’tiboriga allaqachon yetkazilgan bo‘lsa-da, bu vaziyatda “mening ishdan ketishim to‘g‘ri bo‘ladi”.

Shu bilan birga, Braverman Britaniya ommaviy axborot vositalarining iste’foga chiqishining sabablari orasida Trass hukumatining iqtisodiy yo‘nalishi bilan kelishmovchilik ekanligi haqidagi taxminlarining to‘g‘riligiga ishora qildi.

“Men bu hukumatning qaysi yo‘nalishda ketayotganidan xavotirdaman”, deb yozdi sobiq vazir.

O‘z navbatida, Trass Bravermanning qarorini hurmat va iste’fosini qabul qilishini aytdi.

XXR HUKUMATI XORIJLIK INVESTORLARNI XITOY BOZORINI O‘ZLASHTIRISHGA CHAQIRMOQDA

XXR hukumati dunyoning barcha mamlakatidan investorlarni Xitoy bozorini o‘zlashtirishga chaqiradi. XXR Rivojlanish va islohotlar bo‘yicha davlat qo‘mitasi rahbarining o‘rinbosari Chjao Chensin shunday chaqiriq bilan murojaat qildi, deb yozmoqda «Kazinform» agentligi.

Qo‘mita xorijiy investorlarni jalb qilish uchun Xitoy hukumati tomonidan rag‘batlantirilayotgan iqtisodiyotning yangi sohalari bo‘yicha katalogni ma’lum qildi.

Chjao Chensinning ta’kidlashicha, Xitoy e’lon qilgan katalogda qayd etilgan sohalarga joriy etiladigan xorijiy investitsiya loyihalari markaziy hukumat darajasida qo‘llab-quvvatlanadi.

Kutilishicha, sohaviy katalog bo‘yicha ro‘yxatga kiritilgan sohalar ichida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar hamda zamonaviy xizmatlar ham joy olgan.

Bundan tashqari, Xitoyning markaziy, g‘arbiy va shimoli-sharqiy hududlarida xorijiy investorlar amalga oshirayotgan loyihalar markaziy hukumat darajasida qo‘llab-quvvatlanadi.

«Xitoy yuqori darajada har tomonlama ochiqlikni og‘ishmay kengaytirib boradi va inklyuziv, muvozanatli va barcha uchun foydali bo‘lgan iqtisodiy globalizatsiyaga erishadi», – deyiladi «China Daily» nashri e’lon qilgan xabarda.

O‘zA

✓ E`tirof



Marg‘ilon

shahriga «Jahon ipak va ikat hunarmandlari shahri» maqomi berildi

Marg‘ilonda «Atlas bayrami» V xalqaro an’anaviy to‘qimachilik festivali boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, festivalning ochilish marosimida Butunjahon hunarmandlar kengashi Prezidenti Saad al-Qaddumiy shahar hokimi Adham Ziyovuddinovga Marg‘ilon shahri «World Crafts Council» tarmog‘iga kirganligi to‘g‘risidagi sertifikatni topshirdi.

Bu Marg‘ilonning o‘zbek hunarmandchiligi an’analarini saqlashdagi rolini yanada oshiradi.

«Atlas bayrami» V xalqaro an’anaviy to‘qimachilik festivali 22-oktyabrga qadar davom etadi.

Roman BONDARCHUK

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abdulaziz AKKULOV, Abror PO‘LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Baxtiyor SAYFULLAYEV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G‘OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Olim O‘SAROV, Nodir MUXTOROV, Odiljon TOJIYEV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, Feruza MUHAMMADJANOVA, Xurshid DO‘STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO‘JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko‘chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e’tiborimizda bo‘lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV, Abdug‘affor OMONBOYEV
NASHR UCHUN MAS’UL:
Ma’murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Viloyatxon SHODIYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 057.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog‘oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma – 1016
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 4:40

ISSN 2010-7714

123456